


ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKISTON: ILMYIY TADQIQOTLAR

CONFERENCE.S.UZ

# 2026

DAVRIYLIGI: 2018-2026



D.I. MENDELEEVNING  
KIMYOVIY ELEMENTLAR  
DAVRIY JADVALI

Заряд ядра (порядковый номер элемента)  
Относительная атомная масса (атомный вес)

Актиноиды

24 Cr Хром	25 Mn Марганец	26 Fe Железо	27 Co Кобальт	28 Ni Никель	29 Cu Медь	30 Zn Цинк	31 Ga Галлий	32 Ge Германий	33 As Арсен	34 Se Селен	35 Br Бром	36 Kr Криpton
42 Mo Молибден	43 Tc Технеций	44 Ru Рутений	45 Rh Родий	46 Pd Палладий	47 Ag Серебро	48 Cd Кадмий	49 In Индий	50 Sn Олово	51 Sb Сурьма	52 Te Телур	53 I Йод	54 Xe Ксенон
74 W Вольфрам	75 Re Рений	76 Os Осмий	77 Ir Иридий	78 Pt Платина	79 Au Золото	80 Hg Ртуть	81 Tl Таллий	82 Pb Свинец	83 Bi Висмут	84 Po Полоний	85 At Астат	86 Rn Радон
106 Lr Лоренций	107 Bh Борий	108 Hs Хассий	109 Mt Мейтнерий	110 Ds Дармштадтий	111 Rg Рентгеней	112 Cn Коперниций	113 Nh Нихоний	114 Fl Флеровий	115 Mc Мачковичий	116 Lv Ливерморий	117 Ts Теннессий	118 Og Оганесон
60 Nd Неодим	61 Pm Прометий	62 Sm Самарий	63 Eu Европий	64 Gd Гадолиний	65 Tb Тербий	66 Dy Диспрозий	67 Ho Гольмий	68 Er Эрбий	69 Tm Туллий	70 Yb Иттербий	71 Lu Лютеций	72 Hf Гафний
92 U Уран	93 Np Нептуний	94 Pu Плутоний	95 Am Америций	96 Cm Кюрий	97 Bk Берклий	98 Cf Калифорний	99 Es Эйнштейний	100 Fm Фермий	101 Md Менделевий	102 No Нобелий	103 Lr Лауренций	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TAYLIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00

WWW.TADIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ

FEVRAL №85



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР 1-  
ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ЧАСТЬ-1**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC  
RESEARCH PART-1**

ТОШКЕНТ-2026



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 85-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 135 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

**1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

**3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –**

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**5. Давлат бошқаруви -**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

**6. Журналистика -**

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

**7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –**



Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

**8. Адабиёт-**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни -**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

**11. Жисмоний тарбия ва спорт-**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14. Тасвирий санъат ва дизайн-**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15. Мусиқа ва ҳаёт-**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17. Физика-математика фанлари ютуқлари -**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –**

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

**19. Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

**20. Ветеринария**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**21. Кимё фанлари ютуқлари -**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоний вилояти табиий фанлар методисти)

**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -**

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)**

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакцији журнала.**

**www.tadqiqot.uz**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:  
[info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of**

**www.tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:  
[info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000



**ТЕМИР YO‘L TRANSPORTIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI  
TA‘MINLASH: NAZARIY-HUQUQIY ASOSLAR**

**Alixonov Bexzod Nizamidinovich**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
*allixonbexzod@gmail.com*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada temir yo‘l transportida jamoat xavfsizligini ta‘minlashning nazariy va huquqiy jihatlarini tahlil qilinadi. Maqolada jamoat xavfsizligi tushunchasi, uning transport infratuzilmasidagi roli, xavf-xatarlar va tahdidlarni bartaraf etish mexanizmi hamda ma‘muriy-huquqiy tartibga solish asoslari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, transport xavfsizligini ta‘minlash amaliyoti va mavjud muammolar tahlil qilinadi.

**KALIT SO‘ZLAR:** jamoat xavfsizligi, transport xavfsizligi, temir yo‘l transporti, ma‘muriy-huquqiy tartibga solish, xavf va tahdidlar.

Temir yo‘l transporti milliy iqtisodiyot va jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat yo‘lovchi va yuklarni tashish, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalarni bajarishda ham ishtirok etadi. Shu sababli temir yo‘l transportida jamoat xavfsizligini ta‘minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligi - shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish holati bo‘lib, u transport xavfsizligini ham o‘z ichiga oladi. Temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta‘minlash texnik, tashkiliy va huquqiy choralarini talab qiladi.

Temir yo‘l transporti mamlakat hududida va undan tashqarida yo‘lovchi va yuk tashishning eng muhim vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston hududidagi temir yo‘l uzunligi 5 ming kilometrdan ortib, yillik yo‘lovchi tashish hajmi 10 milliarddan, yuk tashish hajmi esa 102 678 million tonnadan oshadi. Shu bilan birga, 2023-yilda O‘zbekiston Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida (LPI) 88-o‘rinni egalladi, bu transport tizimining samaradorligini tasdiqlaydi.

Xavfsizlik nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash holati. Jamoat xavfsizligi esa ijtimoiy munosabatlarning maxsus tizimi sifatida, huquqiy va tashkiliy vositalar orqali ta‘minlanadi.

Jamoat xavfsizligi - bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini tahdidlardan himoyalash, huquqiy va tashkiliy choralar orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlash tizimi. Temir yo‘l transportida jamoat xavfsizligi transport infratuzilmasi va texnik vositalarning xavfsizligi, yo‘lovchi va yuklar xavfsizligi, transport jarayonida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yo‘lovchi va xodimlarning xavfsiz xulq-atvori kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek,



transport xavfsizligi - jamoat xavfsizligining ajralmas qismi sifatida transport faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta‘minlash murakkab tizim bo‘lib, unda huquqiy, tashkiliy va texnik mexanizmlar ishlaydi.

**Huquqiy mexanizm** ma‘muriy-huquqiy normalar, hujjatlar va ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Bu mexanizm transport ob‘yektlarida xavfsizlikni ta‘minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va javobgarlikni belgilashni nazarda tutadi.

**Tashkiliy mexanizm** davlat organlari va transport subyektlarining hamkorligi, xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar va xodimlar faoliyatini nazorat qilishni o‘z ichiga oladi.

**Texnik mexanizm** transportning texnik infratuzilmasi, signalizatsiya, monitoring va navigatsiya tizimlari orqali xavfsizlikni ta‘minlaydi.

Ma‘muriy-huquqiy tartibga solish transport xavfsizligini ta‘minlashda markaziy rol o‘ynaydi. Bu tartibga solishning asosiy elementlariga transport ob‘yektlarida xavfsizlikni tartibga soluvchi huquqiy normalar, xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar va nazorat, xavf-xatarlarni oldini olish, bartaraf etish va minimallashtirish tizimi, yo‘lovchilar va xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kiritish mumkin. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta‘minlash prinsiplariga quyidagilar kiradi: inson huquqlari ustuvorligi, qonuniylik, davlat javobgarligi, xavfsizlik talablarini bajarish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ushbu yo‘nalishda davlat dasturlari, “yo‘l xaritalari” va rejalarining bajarilishini boshqaradi, jamoat xavfsizligini ta‘minlash kuchlari, vositalari va organlarini moddiy hamda moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash choralarini ko‘radi. U jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha choralarni amalga oshirishga ko‘maklashadi, shuningdek mazkur vazifalarni hal etish faoliyatini har tomonlama ta‘minlash masalalarini hal qiladi.

Hukumat transport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishni ta‘minlaydi, faoliyatni muvofiqlashtiradi, transport tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etadi, transport infratuzilmasini shakllantirish va uning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. Shuningdek, transport sohasida litsenziyalash, sertifikatlashtirish, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini belgilaydi, transport infratuzilmasi obyektlari va transport vositalarining toifalari sonini hamda ularni toifalarga ajratish mezonlarini belgilab beradi.

Mazkur masalalar yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarni tartibga soluvchi hukumat qarorlarini qabul qilish yo‘li bilan hal etiladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik milliy ma‘lumotlar bazasi (lex.uz) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 10-noyabr holatiga, temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta‘minlashga oid O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 46 ta qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati milliy xavfsizlikni ta‘minlash, davlat chegarasini qo‘riqlash, mamlakatni tashqi tahdidlardan himoya



qilish manfaatlarida razvedka faoliyatini amalga oshiradi. Uning vazifalariga, shuningdek, davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish hamda davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish kiradi. Shubhasiz, uning faoliyatida mamlakat transport xavfsizligini, shu jumladan temir yo'l transporti kabi strategik sohada xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhim o'rin egallaydi.

Hozirgi kunda temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash huquqiy tartibga solishda bo'shliqlar va koliziyalar, texnik vositalar va signalizatsiya tizimlarining to'liq ishlamasligi, yo'lovchi va xodimlar xulq-atvori va huquqiy madaniyatining yetarli emasligi kabi muammolar bilan bog'liq bo'lib, ularni hal qilish uchun ma'muriy-huquqiy normalarni takomillashtirish, transport xavfsizligi institutini mustahkamlash, texnik va tashkiliy chora-tadbirlarni kuchaytirish, jamoatchilikni xavfsizlik masalalarida faollashtirish kabi yechimlar taklif qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash murakkab tizim bo'lib, unda huquqiy, tashkiliy va texnik choralar uyg'un ishlashi muhim. Jamoat xavfsizligini ta'minlash transport infratuzilmasi, yo'lovchi va yuklar xavfsizligini nazorat qilish, huquqbuzarliklarni oldini olish va favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini kamaytirish orqali amalga oshiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'l kodeksi, Toshkent, 2022.
2. Joldasov A.F., "Jamoat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslari", Toshkent, 2020.
3. Panarin S.A., Safety and Security: Theoretical Approaches, Moscow, 2019.
4. Kondrashov B.P., Public Safety in Transport, Saint-Petersburg, 2021.
5. Ziyodullaev M., "Jamoat xavfsizligi tizimi", Tashkent, 2022.
6. Tang Sh., "Concept of Safety in Transport Infrastructure", Beijing, 2018.
7. Jahon banki, Logistics Performance Index, 2023.



## ТЕМИР YO‘L TRANSPORTI XAVFSIZLIGI VA MA‘MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

**Alixonov Bexzod Nizamidinovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi

*allixonbexzod@gmail.com*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada temir yo‘l transportida jamoat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy va ma‘muriy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada xavfsizlik tushunchasi, transportda xavf va tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish usullari, shuningdek huquqiy tartibga solish mexanizmlari va amaliy choralar ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari temir yo‘l transporti sohasida xavfsizlikni oshirish va qonuniy tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

**KALIT SO‘ZLAR:** temir yo‘l transporti, transport xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, huquqiy tartibga solish, tahdidlardan himoya, ma‘muriy-huquqiy mexanizmlar.

Temir yo‘l transporti mamlakatning yo‘lovchi va yuk tashish infratuzilmasi bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasida temir yo‘l transporti davlat tomonidan boshqariladi va Transport vazirligining vakolatiga kiradi.

Hozirgi sharoitda temir yo‘l transporti nafaqat mamlakat ichida, balki hududdan tashqarida ham yo‘lovchilar va yuklarni xavfsiz tashish tizimini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, transport xavfsizligi jamoat xavfsizligining muhim qismi hisoblanadi va undan kelib chiqadigan huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni talab qiladi.

Temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta‘minlash milliy huquqshunoslik va transport nazariyasi uchun dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada xavfsizlikni tartibga solishning huquqiy, ma‘muriy va tashkiliy jihatlari batafsil yoritiladi.

Jamoat xavfsizligi - shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish holati sifatida ta‘riflanadi. Temir yo‘l transportida jamoat xavfsizligiga yo‘lovchi va yuklarning xavfsizligi, temir yo‘l ob‘yektlari, stansiyalar va infratuzilmaning himoyasi, texnik, tashkiliy va huquqiy vositalar orqali xavfsizlikni ta‘minlash, favqulodda vaziyatlar va huquqbuzarliklar oqibatlarini minimallashtirishlar kiradi.

Transport xavfsizligi jamoat xavfsizligining mustaqil qismi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, temir yo‘l transportida xavfsizlik nafaqat texnik va tashkiliy, balki huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lib, davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Temir yo‘l transportida xavf va tahdidlar bir necha asosiy turga bo‘linadi.



Texnik xavf lokomotiv va vagonlarning texnik nosozligi, signalizatsiya tizimlarining ishlamasligini nazarda tutsa, tashkiliy xavf harakat tartibining buzilishi, xodimlarning xatolarini, huquqbuzarliklar jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarni, favqulodda vaziyatlar esa yong'in, suv toshqini, sun'iy va tabiiy ofatlar. Xavf va tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy mexanizmi huquqiy normalar temir yo'l transportida xavfsizlikni tartibga soluvchi qonunlar, kodekslar va ma'muriy-huquqiy aktlarni, tashkiliy faoliyat xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan idoraviy va operativ chora-tadbirlarni, monitoring va nazorat yo'lovchi-xodim faoliyati va transport ob'ektlarini muntazam kuzatishni, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik avariya, texnogen va tabiiy ofatlar oqibatlarini kamaytirishni nazorat qiladi.

Huquqiy tartibga solish orqali xavfsizlikni ta'minlash transportdagi barcha subyektlar - davlat organlari, xodimlar va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash tizimi ob'ekt, sub'ekt, vosita va usullar hamda natija elementlarini o'z ichiga oladi. Bunda yo'lovchilar, yuklar, transport ob'ektlari ob'ektini, davlat organlari, xodimlar, nodavlat tashkilotlar sub'ektini, texnik, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar vosita va usullarni, yo'lovchi va transport ob'ektlarining himoyalanganligi, xavfsizlik darajasi natijani taqozo etadi. Ushu tizim orqali transportdagi xavfsizlikni oshirish, favqulodda vaziyatlarni kamaytirish va jamoat manfaatlarini himoya qilish mumkin.

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash murakkab, tizimli va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u huquqiy, ma'muriy va tashkiliy mexanizmlardan iborat. Ushbu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari transport xavfsizligi institutini shakllantirish, qonunchilikni takomillashtirish va amaliyotda xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

Temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash davlat va jamoatchilikning hamkorligini talab qiladigan faoliyat bo'lib, u transport sohasida xavf va tahdidlarni kamaytirish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va yo'lovchi hamda yuk tashish jarayonini xavfsiz amalga oshirishga qaratilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'l kodeksi, Toshkent, 2022.
2. Joldasov A.F., "Jamoat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslari", Toshkent, 2020.
3. Panarin S.A., Safety and Security: Theoretical Approaches, Moscow, 2019.
4. Kondrashov B.P., Public Safety in Transport, Saint-Petersburg, 2021.
5. Ziyodullaev M., "Jamoat xavfsizligi tizimi", Tashkent, 2022.
6. Tang Sh., "Concept of Safety in Transport Infrastructure", Beijing, 2018.



7. Jahon banki, Logistics Performance Index, 2023.



## ТЕМИР YO‘L TRANSPORTIDA TRANSPORT XAVFSIZLIGINI MA‘MURIY-HUQUQIY YO‘L BILAN TA‘MINLASH: MILLIY VA XALQARO NORMALAR TAHLILI

**Alixonov Bexzod Nizamidinovich**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
*allixonbexzod@gmail.com*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada temir yo‘l transportida transport xavfsizligini ma‘muriy-huquqiy vositalar yordamida ta‘minlashning milliy va xalqaro normalari tahlil qilinadi. Maqolada transport xavfsizligi tushunchasi, xavf va tahdidlarni oldini olish mexanizmlari, huquqiy tartibga solish tizimi hamda xalqaro tajriba yoritilgan. Shuningdek, maqolada milliy qonunchilikning xalqaro normalar bilan muvofiqligi va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

**KALIT SO‘ZLAR:** temir yo‘l transporti, transport xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, ma‘muriy-huquqiy tartibga solish, xalqaro standartlar, milliy qonunchilik.

Temir yo‘l transporti mamlakatlar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan transport tarmog‘idir. Ushbu transport turida xavfsizlikni ta‘minlash, jamoat tartibini saqlash va yo‘lovchilar, yuklar hamda transport infratuzilmasining butligini kafolatlash eng dolzarb vazifalardan biridir. Transport xavfsizligini ma‘muriy-huquqiy tartibga solish jarayoni davlat boshqaruvi, normativ-huquqiy hujjatlar, texnik va tashkiliy choralardan iborat kompleks mexanizmni o‘z ichiga oladi.

Maqolada temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta‘minlashda milliy qonunchilikning roli, xalqaro normalar bilan muvofiqligi, mavjud bo‘shliqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, amaliy jihatdagi tavsiyalar ham ishlab chiqiladi.

Transport xavfsizligi - yo‘lovchilar, yuklar va transport infratuzilmasining xavfsizligini, jamoat tartibini, shuningdek, qonuniy manfaatlarni himoya qilishni ta‘minlovchi majmuaviy tizimdir. Temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta‘minlash transport vositalari va inshootlar xavfsizligini ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i va mulkini himoya qilish, transport jarayonida yuzaga keladigan xavf va tahdidlarni oldini olish, xalqaro va milliy normativ-huquqiy talablarni bajarish vazifalarini bajaradi.

Transport xavfsizligini ta‘minlash sohasida ma‘muriy-huquqiy vositalar vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat, ruxsat, tartibga solish va profilaktik choralardir. Ularga transport sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni, xavfsizlikni ta‘minlovchi subyektlarning vakolat va majburiyatlarini belgilashni, transport vositalari, yuklar va yo‘lovchilar xavfsizligi bilan bog‘liq qoidalar va standartlarni joriy etishni hamda



transportdagi huquqbuzarliklarni aniqlash va javobgarlikka tortishni kiritish mumkin.

Milliy qonunchilik va normativ-huquqiy asoslarga O'zbekiston Respublikasida temir yo'l transporti xavfsizligini ta'minlash bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni kiritib, ular asosida jarayon tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy huquqiy hujjat sifatida fuqarolar xavfsizligi va davlatning xavfsizlik masalalarini, "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonun temir yo'l transporti faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab, xavfsizlikni ta'minlash talablarini, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun transport obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bo'yicha ichki ishlar organlarining vakolatlarini, Temir yo'l ustavi va Texnik reglamentlar harakat xavfsizligi, yo'lovchi va yuklarni tashish qoidalarini, Vazirlar Mahkamasi qarorlari temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha maxsus me'yoriy-hujjatlarni belgilaydi.

Mazkur hujjatlar jamoat xavfsizligini ta'minlash, yo'lovchilarni himoya qilish va transport jarayonidagi xavflarni oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga, amaliyotda ular xavfsizlikni kompleks tarzda ta'minlashga imkon yaratadi.

Xalqaro normativ-huquqiy normalar ham temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro tajriba ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, International Union of Railways (UIC) Safety Guidelines temir yo'l transportida xavfsizlikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha tavsiyalar berishda muhim hisoblansa, SOLAS (International Convention for the Safety of Life at Sea, IMO, 1974) transport obyektlari xavfsizligi va yo'lovchilarni himoya qilish prinsiplarini belgilaydi hamda OECD Guidelines for Transport Safety transport xavfsizligini oshirish va xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro normalar milliy qonunchilikni takomillashtirish, transport xavfsizligini oshirish va jamoat tartibini mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqola tahliliga ko'ra bir nechta xulosalarga erishildi. Ularga ko'ra, milliy qonunchilikda transport xavfsizligini ta'minlashning asosiy mexanizmlari belgilangan, biroq ayrim jihatlar bo'yicha xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish zarur; xalqaro normalar xavfsizlikning kompleks tizimini belgilaydi, milliy qonunchilik esa ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmini yaratadi va amaliyotda milliy va xalqaro normalarni uyg'unlashtirish transport subyektlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa mas'ul idoralar faoliyatini samarali qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun maxsus qonun yoki hukumat qarori ishlab chiqilishi zarur; transport xavfsizligini ta'minlovchi organlarning vakolatlari va javobgarligini aniqlashtirish; temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha maxsus nazorat mexanizmlari va standartlashtirish tizimini joriy etish; xalqaro tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali xavfsizlikni oshirish kabi tavsiyalar berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Temir yo'l transportida transport xavfsizligini ma'muriy-huquqiy yo'l bilan ta'minlash milliy va xalqaro normalar asosida amalga oshiriladi. Maqola tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy



mexanizmlarni belgilaydi, ammo xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish zarur. Shu yo'l bilan transport xavfsizligi, jamoat tartibi va yo'lovchilarni himoya qilish samaradorligi oshiriladi.

### Foydalanilgan dabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 1999.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'l ustavi. Toshkent, 2002.
5. Vazirlar Mahkamasi qarorlari: "Temir yo'l transportidan texnik foydalanish va harakat xavfsizligini ta'minlash qoidalari", Toshkent, 2015–2022.
6. L.A. Poleshchuk. Transportnaya bezopasnost': pravovye aspekty i administrativno-pravovoe regulirovanie. Minsk: Belarus State University Press, 2015.
7. International Union of Railways (UIC) Safety Guidelines, Paris, 2018.
8. SOLAS (International Convention for the Safety of Life at Sea, IMO, 1974).
9. OECD Guidelines for Transport Safety, 2020.
10. Bekmurodov, R. Transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash: huquqiy va tashkiliy jihatlar. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021.



## ОММАВИЙ ТАРТИБСИЗЛИКЛАРДА ЗЎРЛИК ИШЛАТИШ ВА УНДАГИ КРИМИНОЛОГИК ОМИЛЛАР

**Нуратдинов Сражатдин Камалатдинович**  
*Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги  
университети мустақил изланувчиси*

**Аннотация:** Ушбу мақолада оммавий тартибсизликлар жараёнида зўрлик ишлатишнинг моҳияти, шакллари ва намоён бўлиш хусусиятлари ҳар томонлама таҳлил этилади. Зўрликнинг жамоат хавфсизлиги ва ижтимоий барқарорликка салбий таъсири, уни келтириб чиқарувчи ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, психологик ва ахборот омиллари криминалогик нуқтаи назардан ўрганилади. Шунингдек, оммавий тартибсизликларда иштирок этувчи шахсларнинг ижтимоий портрети, гуруҳвий хатти-ҳаракатлар психологияси ҳамда зўрликка мойилликни кучайтирувчи сабаб-шароитлар очиқ берилди. Мақолада зўрлик ишлатишнинг олдини олишга қаратилган профилактик чора-тадбирлар, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари ҳамда криминалогик таҳлил асосида илмий-амалий таклиф ва хулосалар баён этилади.

**Калит сўзлар:** зўрлик ишлатиш, жиноят сабаблари, ижтимоий омиллар, жамоат хавфсизлиги, профилактика

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 244-моддаси тўртинчи қисмида қурол ёки қурол сифатида фойдаланиладиган бошқа нарсаларни ишлатиб ёхуд ишлатиш билан қўрқитиб шахсга нисбатан зўрлик ишлатиш, қирғин солиш, ўт қўйиш, мулкка шикаст етказиш ёки уни нобуд қилиш, ҳокимият вакилига қаршилик кўрсатиш орқали содир этилган оммавий тартибсизликларни ташкил қилиш ёхуд ушбу фаолиятни молиялаштириш, худди шунингдек оммавий тартибсизликларда фаол қатнашиш, ўн йилдан ўн беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши кўрсатилган.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 26-моддаси иккинчи қисмига кўра, ҳеч ким қийноққа солиниши, зўравонликка, бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки инсон қадр-қимматини камситувчи муомалага ёхуд жазога дучор этилиши мумкин эмас.

Юридик фанда зўравонлик тушунчасига оид кўплаб нуқтаи назарлар шаклланган. Шу муносабат билан зўравонликни талқин қилишнинг анъанавий ёндашувларига эътибор қаратиш лозим. Масалан, В. Дал нуқтаи назарича, зўравонлик “чекловчи, хафа қиладиган, ноқонуний ва ўзбошимча ҳаракат” ҳисобланади. Батафсилроқ таърифни С.И. Ожегов луғатида топиш мумкин. Унга кўра, зўравонлик қуйидагиларни ўз ичига олади: кимгадир жисмоний куч ишлатиш; кимгадир мажбурий таъсир ўтказиш, шахсий дахлсизликни бузиш; тазйиқ ўтказиш ва қонунбузарлик. Жисмоний зўравонлик инсон организмга бевосита таъсир кўрсатишда намоён бўлади: калтаклаш, тан жароҳати



етказиш, турли усуллар билан қийнаш (шу жумладан, ҳар қандай буюмлар ва моддалар ёрдамида) ва ҳоказо. Руҳий зўравонлик эса жабрланувчининг қаршилиқ кўрсатиш иродасини синдириш мақсадида кўрқитиш, таҳдид қилиш (хусусан, жисмоний зўравонлик билан кўрқитиш) орқали инсон руҳиятига таъсир ўтказишдан иборат [1].

Зўравонлик тушунчасининг турлича талқини етакчи ҳуқуқшунослар асарларида учрайди. Масалан, И. Иванцовнинг фикрича, зўравонлик – бу бошқа шахсга унинг онги ва иродасидан ташқари ёки унга қарши қаратилган, жиддий зарар етказган ёхуд шундай зарар етказиш хавфини туғдирган қонунга хилоф, қасдан қилинган жисмоний ва (ёки) руҳий таъсирдир [2]. Ю.В. Радостеванинг таъкидлашича, жиноий зўравонлик “инсон организмга жисмоний ёки руҳий зарар етказиш билан боғлиқ бўлган ижтимоий хавфли, қонунга хилоф таъсирни” назарда тутди [3]. Юқорида айтилганлардан хулоса қилиш мумкинки, жиноят ҳуқуқи назариясида зўравонлик тушунчаси ҳам жисмоний, ҳам руҳий зўравонликни ўз ичига олади.

Оммавий тартибсизликлар пайтида содир этиладиган қийноққа солиш (ЎзР ЖК 110-моддаси) каби жиноят таркибига ҳам эътибор қаратиш зарур. Қийноқнинг асосий белгиси мунтазамлик бўлиб, у камида уч марта такрорланувчи, инсонга азоб берувчи калтаклаш ёки бошқа зўравонлик ҳаракатларини ўз ичига олади. Масалан, узоқ вақт давомида овқат, иссиқлик, сув ёки яшаш жойидан маҳрум қилиш, жабрланувчини соғлиқ учун зарарли шароитларда қолдириш, шунингдек, кўп марта ёки узоқ вақт мобайнида оғриқ етказиш (қамчи, таёқ билан уриш, чимчилаш, санчиш, тишлаш, ўтмас ёки ўткир учли жисмлар билан кўплаб енгил жароҳатлар етказиш, иссиқлик таъсири) кабилар. Демак, қийноқлар оммавий тартибсизликларга хос эмас.

Оммавий қирғинга келсак, юридик луғатда у “кўпинча зўравонлик, одамларни ҳақоратлаш, қотиллик, зўрлаш, қароқчилик ҳужумлари, ўғирлик ва шу кабилар билан бирга кечадиган мулк, транспорт, алоқа воситаларини йўқ қилиш ёки вайрон қилиш” деб таърифланади. Таъкидлаш жоизки, олимлар томонидан ушбу ижтимоий хавфли қилмишнинг талқини бир хил эмас, бу эса уни тушуниш ва тўғри квалификация қилишга тўсқинлик қилади. С.В.Кудрявцев оммавий қирғинни “иншоотлар, мол-мулк, транспорт, алоқа воситаларини йўқ қилиш ёки вайрон қилиш, кўпинча одамларга нисбатан зўравонлик, уларни ҳақоратлаш, қотиллик содир этиш, турли даражада соғлиққа зарар етказиш, зўрлаш, қароқчилик ҳужумлари, талончилик ва ҳоказолар билан бирга кечади” деб таърифлайди. Бироқ у бу қилмишнинг бир қатор таркибий қисмларини қисқартириб, одамларни ҳақоратлаш, қотиллик, соғлиққа зарар етказиш ва зўрлашни тушунчадан чиқариб ташлайди. Яъни, оммавий қирғинни “иншоотларни йўқ қилиш ёки вайрон қилиш, кўпинча одамларга нисбатан зўравонлик, босқинчилик ҳужумлари, талончилик ва шу кабилар билан бирга кечадиган мол-мулк, транспорт, алоқа воситаларига зарар етказиш” деб белгилайди. В.Д. Ивановнинг ишида оммавий қирғинлар “уй-жойлар, хоналар ва бошқа иншоотларни вайрон қилиш, талон-тарож қилиш, бузиш” деб тушунилади [4].



А.И. Рарогнинг нуқтаи назарига кўра, оммавий қирғинлар – бу “корхоналар, муассасалар ва ташкилотлар ёки фуқаролар эгаллаб турган уй-жойлар, турли бинолар ва иншоотларни вайрон қилиш, бузиш ва талон-тарож қилиш”дир. А.В. Наумов эса оммавий қирғинлар – турар-жой, ишлаб чиқариш, хизмат ёки бошқа биноларни вайрон қилиш, бузиш ёки талон-тарож қилиш, мол-мулкни қасддан йўқ қилиш” деб ҳисоблайди. Я.В. Лобовнинг фикрича, оммавий қирғинлар деганда турар-жой ва нотурар-жой бинолари ҳамда иншоотларини (дўконлар, уй-жойлар ва бошқалар) вайрон қилиш, талон-тарож қилишга қаратилган, кўпинча ирқий, миллий ва диний адоват замирида одамларга нисбатан зўравонлик билан кечадиган ҳаракатларни тушуниш лозим. О.Л.Дубовик оммавий қирғинларга “моддий бойликлар ва фуқароларга зўравонлик билан тажовуз қилиш”ни киритади [5].

Ўзбекистон жиноят ҳуқуқидаги оммавий қирғинлар тушунчасига қуйидаги ёндашувлар эътиборни тортади. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига оммавий қирғин уй-жой, маъмурий бинолар, мол-мулк, улардаги ишлаб чиқариш қуроллари ва воситаларига зарар етказиш, уй-жойлар, дўконлар, омборхоналарни талон-тарож қилиш, транспорт воситаларини йўқ қилиш сифатида талқин этилган.

А.В. Шеслер ва С.М. Мальковнинг ишларида оммавий қирғин шахсга нисбатан зўравонлик билан содир этиладиган, мулкни йўқ қилиш ёки шикастлаш, шунингдек, уни талон-тарож қилишга олиб келадиган бебошликлар сифатида тавсифланади [6]. А.Соловьёв ўз мақоласида погромларни “қийматга эга бўлган бирон-бир мулкни вайрон қилиш, шикастлаш, бузиш, талон-тарож қилиш, таҳқирлаш, йўқ қилиш” деб тушунишни таклиф қилади [7].

Олимларнинг турли ёндашувларини таҳлил қилиб, замонавий Ўзбекистон қонунчилигидаги погромнинг бир қатор умумий элементларини ажратиш кўрсатиш мумкин. Хусусан, уларнинг аксарияти бу тушунчанинг асосий таркибий қисмлари зўравонлик ва мулкни йўқ қилиш эканлигига келишади; баъзилари эса бу тушунчага ўт қўйишни ҳам киритади. Эътибор қаратиш лозимки, оммавий қирғиннинг кўрсатилган элементлари оммавий тартибсизликларнинг бир қисм белгиларига тўлиқ мос келади. Бу эса тавтологияга олиб келади, айниқса бу тушунчанинг луғавий маъноси мавжуд бўлиб, уни “бирон-бир миллий ёки бошқа аҳоли гуруҳига қарши реакцион-шовинистик чиқиш, мулкни вайрон қилиш ва талон-тарож қилиш билан кечадиган ҳаракат” сифатида талқин қилади.

Оммавий тартибсизликларда содир бўладиган зўрлик ишлатишда жиноят субъектлари доирасига ҳам эътибор қаратиш керак. Масалан, йўлида учраган ҳамма нарсани йўқ қилиб, вайрон қиладиган футбол мухлислари оддий безорилар ҳисобланади. Бундан ташқари, бизнингча, оммавий қирғинлар тушунчасига ўғирликни киритган олимларнинг фикри нотўғри, чунки оммавий тартибсизликлар аксарият ҳолларда стихияли равишда пайдо бўлади, спонтан тарзда ўтади ва оломоннинг мақсади ўзганинг мулкни ўғирлаш эмас, балки вайронкорлик ва зўравонликдир.



Жиноят ҳуқуқи назариясига кўра, ўт кўйиш деганда мол-мулк, бинолар, иншоотлар, транспорт воситалари, ўсимликлар ва бошқаларнинг ёниб кетишига олиб келадиган қасддан содир этилган ҳаракатлар тушунилади. Бунда, ёкиб юборилган мол-мулкнинг шикастланмаганлиги ёки йўқ қилинмаганлиги, бошланган ёнғинни ўчиришга муваффақ бўлинганлиги квалификацияга таъсир этмайди. Мол-мулкни йўқ қилиш деганда уни турли усуллар билан тўлиқ яроқсиз ҳолга келтириш, яъни унинг истемол хусусиятлари ва иқтисодий қийматини бутунлай йўқотадиган, умуман ўз вазифаси бўйича ишлатиб бўлмайдиган ва йўқолган хусусиятларини тиклаб бўлмайдиган ҳолатга келтириш тушунилади. Бунда нафақат оммавий тартибсизликлар пайтида кўчада, оломон кетаётган йўлда турган кўчар мол-мулк (дўконлардан сотиладиган турли товарлар шунчаки пайҳон қилиниши, телефон-автоматлар, шарбат ва бошқа ичимликлар сотиш автоматлари синдирилиши мумкин), балки кўчмас мулк (бинолар, иншоотлар, турар-жой уйлари), шунингдек транспорт воситалари ҳам назарда тутилади.

Амалдаги қонунчиликка кўра, оммавий тартибсизликлар белгисини фақат ўқотар қуролдан фойдаланиш ташкил этади. Бу эса, бизнинг фикримизча, тартибсизликларни ташкил этиш ва уларда иштирок этиш учун жавобгарлик шартларининг камайишига олиб келади. Қонун чиқарувчининг бундай қарори тушунарсиздир. Оммавий тартибсизликларда иштирок этаётган шахслар газ, пневматик қуроллар, электрошок қурилмалари ва учқун разрядникларидан фойдаланишлари ёки пичоқлар, кастетлар каби қуроллар билан қуролланишлари мумкин эмасми? Кўрсатилган “ўқ отмайдиган” қуролларнинг ҳар қандай тури билан соғлиққа зарар етказиш ва ҳатто инсон ҳаётига зомин бўлиш мумкин. Бизнингча, оммавий тартибсизликларда ҳар қандай қурол, яъни жонли ёки бошқа нишонга зарар етказиш учун мўлжалланган қурилмалар ва буюмлардан фойдаланиш ҳисобга олиниши лозим.

Шу билан бирга, тартибсизликлар пайтида ёндиргич қурилмаларни (масалан, ёнувчи аралашмалари шиша идишларни) фуқароларга зарар етказиш ёки ўзгалар мулкига шикаст етказиш мақсадида эмас, балки оломонни кўзғатиш ва тартибсизликни кучайтириш учун ташлаган шахсларнинг ҳаракатларини қандай баҳолаш масаласи туғилади. Тартибсизликлар давомида қуролга кирмаган буюмлар – тошлар, таёқлар, арматура бўлаклари, занжирлар, синган шиша идишлари ва бошқаларни қўллаган шахсларнинг ҳаракатларини қандай тавсифлаш ҳам ноаниқлигича қолмоқда. Уларнинг жавобгарлигини жабрланувчиларга фақат қўли билан зарба берган шахсларнинг жавобгарлиги билан тенглаштириш тўғрими? Бошқаларга нисбатан бу шахсларнинг хавфлилиги ошмаяптими?

Бизнинг нуқтаи назаримизча, қурол сифатида ишлатиладиган буюмлардан фойдаланишни оммавий тартибсизликларнинг белгиларидан бири сифатида эътироф этиш лозим. Бунда оммавий тартибсизликларда қурол сифатида ишлатиладиган буюмларга қуйидагилар киритилиши керак: ўз хусусиятларига кўра қурол ўрнини боса оладиган буюмлар (болта, лом,



ошхона пичоғи ва ҳ.к.); вақтинчалик нишонга зарар етказиш учун мўлжалланган буюмлар (масалан, кўздан ёш оқизувчи ёки кўзғатувчи моддалар билан жиҳозланган аэрозоль курилмалар); тан жароҳати етказиш учун махсус тайёрланган ёки мослаштирилган буюмлар; жиноят жойида олинган буюмлар.

Амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ ҳокимият вакилига қуроли қаршилик кўрсатиш деганда, ушбу шахсга бўйсунмаслик ва қурол ишлатиш ёки ишлатиш билан кўрkitиш орқали унинг тартибни тиклаш ва оммавий тартибсизликларни бостириш бўйича хизмат мажбуриятларини бажаришига фаол тўсқинлик қилиш тушунилади.

Юқоридаги фикрларни умумлаштириб, қуйидагиларни таъкидлаш мумкин:

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 244-моддаси тўртинчи қисми диспозициясида тўғридан-тўғри кўрсатилган ҳокимият вакиллари қаторига “тартибни тиклашда иштирок этувчи шахслар”ни қўшиш таклиф этилади;

- қуроли қаршилик кўрсатиш деганда қуролни қўллаш ёки ундан фойдаланиш тушунилади, бунда барча олимлар ўқотар қурол бўлиши мумкинлигини эътиборга олиш лозим;

- ҳокимият вакилига қаршилик кўрсатиш мақсади сифатида ушбу шахсга бўйсунмаслик ёки унинг ўз лавозим мажбуриятларини бажаришига тўсқинлик қилиш ва ҳатто уларни тарқатиб юбориш ҳам назарда тутилади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Большой юридический словарь / под ред. А.Я. Сухарева, В.Е.Крутских. - М., 2004.
2. Иванцов И. Основные положения концепции общественной опасности насилия в УП / И. Иванцов // Уголовное право. - 2004. - № 4.
3. Радостева Ю.В. Уголовно-правовое понятие насилия / Ю.В.Радостева // Российский юридический журнал. - 2001. - № 1.
4. Иванов В.Д. Уголовное право. Особенная часть: учебник / В.Д.Иванов. - Ростов н/Д, 2002.
5. Российское уголовное право. Особенная часть / под ред. В.Н.Кудрявцева, А.В. Наумова. - М., 1997.
6. Шеслер А.В. Преступления против общественной безопасности: учеб. пособие / А.В. Шеслер, С.М. Мальков. - Красноярск, 2000.
7. Соловьев А. Массовые беспорядки: организация, участие, призывы к неподчинению / А. Соловьев // Российская юстиция. - 2000. - № 7.



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

ДУХОВНОСТЬ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОСТИ ЛИЧНОСТИ В  
УСЛОВИЯХ ЦЕННОСТНОГО РЕЛЯТИВИЗМА ГЛОБАЛЬНОГО  
МИРА

**Мартаба Нумоновна Меликова**

Доктор философских наук (DSc), профессор  
заведующая кафедрой Гуманитарных наук  
и информационных технологий  
Самаркандский государственный институт  
иностранных языков

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль духовности как фундаментального фактора сохранения целостности и устойчивости личности в эпоху глобализации. Автор исследует феномен ценностного релятивизма, который размывает традиционные моральные ориентиры и создает риски для идентичности. В работе обосновывается, что духовность, понимаемая как высшая форма саморегуляции и смыслополагания, выступает внутренним фильтром против деструктивных влияний информационной среды. Особое внимание уделяется синтезу национальных ценностей и медиаграмотности в контексте формирования «духовного иммунитета» личности.

**Ключевые слова:** духовность, ценностный релятивизм, глобализация, устойчивость личности, национальные ценности, социальная философия, информационное общество, медиаграмотность.

Современная цивилизация находится в состоянии перманентной трансформации, охватывающей все сферы человеческого бытия. Глобализация, наряду с технологическим прогрессом и открытостью границ, принесла с собой серьезный вызов — кризис ценностных оснований. В эпоху, которую социологи называют «постмодерном» или «текущей современностью», традиционные институты социализации утрачивают свою безусловную значимость. На смену устойчивым этическим системам приходит ценностный релятивизм, провозглашающий относительность любых истин. В этой ситуации личность оказывается перед угрозой дезориентации и смысловой пустоты. В связи с этим социально-философское осмысление духовности как фактора устойчивости личности становится не просто теоретической задачей, но и практической необходимостью для сохранения человеческого в человеке.

Глобализация стремится к унификации культурных и экономических стандартов, что неизбежно ведет к «размыванию» национальных и локальных ценностей. Ценностный релятивизм становится логическим следствием этого процесса. Его суть заключается в утверждении, что ни одна моральная система



не имеет приоритета над другой, а понятия «добра» и «зла» ситуативны и субъективны.

С точки зрения социальной философии, релятивизм опасен тем, что он лишает личность субъектности. Если все ценности относительны, то исчезает почва для твердого выбора, ответственности и долгосрочного жизненного планирования. Личность превращается в «цифрового кочевника», который не имеет корней и легко поддается манипуляциям. В условиях информационного изобилия отсутствие четкой внутренней иерархии ценностей ведет к фрагментации сознания, когда индивид живет «здесь и сейчас», не осознавая своей связи с прошлым и ответственности перед будущим.

Для понимания устойчивости личности необходимо уточнить понятие «духовность». В рамках социально-гуманитарного знания духовность рассматривается не только как религиозная приверженность, но прежде всего как качественная характеристика сознания. Это способность индивида выходить за пределы своих узкоэгоистических потребностей и ориентироваться на высшие смыслы: истину, благо, красоту и справедливость.

Духовность в XXI веке выполняет функцию внутренней вертикали. Если глобальный мир — это горизонтальное пространство, где всё перемешано и равнозначно, то духовность вносит в жизнь личности измерение высоты. Она позволяет выстроить систему координат, в которой материальное потребление не является самоцелью, а служит средством для реализации творческого и интеллектуального потенциала. Духовный человек обладает «внутренним законом», который помогает ему сохранять достоинство и целостность даже тогда, когда внешние социальные структуры нестабильны.

В контексте развития Нового Узбекистана концепция духовности (*ma'naviyat*) приобретает стратегическое значение. Исторический опыт показывает, что народы, сохранившие свой духовный код, успешно проходят через периоды самых радикальных трансформаций. Для личности духовность становится механизмом резильентности (устойчивости).

Во-первых, духовность обеспечивает преемственность. Опора на национальные ценности и историческую память позволяет индивиду чувствовать себя частью великой истории, что дает мощный психологический ресурс. Наследие мыслителей Востока, таких как Аль-Фараби с его концепцией «Добродетельного города» или Алишер Навои с идеями гуманизма, формирует базис, который не подвластен временной моде или внешнему давлению.

Во-вторых, духовность выступает как фильтр. В условиях «информационного шума» и ценностного хаоса духовный человек способен отличать истинные потребности от навязанных симулякров. Это качество тесно связано с медиаграмотностью: понимание этических основ позволяет личности распознавать манипулятивные техники в социальных сетях и противостоять «культуре отмены» или моральному нигилизму.

Как представители академической среды, работающие на стыке гуманитарных наук и информационных технологий, мы видим, что



современная устойчивость личности требует междисциплинарного подхода. Духовность сегодня — это не уход от мира в созерцание, а активная позиция в цифровом пространстве.

Формирование устойчивой личности должно включать критическое мышление как форму духовной гигиены: умение анализировать информацию с точки зрения её этической и логической ценности.

Этическое проектирование технологий должно включать обучение ИТ-специалистов гуманитарным дисциплинам, чтобы создаваемые ими алгоритмы не разрушали социальную ткань и человеческое достоинство.

Цифровой гуманизм должен быть основан на использовании технологий для трансляции высоких смыслов и сохранения культурного наследия, а не только для развлечения и потребления.

Таким образом, духовность становится «операционной системой» личности, позволяющей эффективно работать с «данными» глобального мира, не допуская «вирусов» релятивизма и апатии.

Подводя итог, следует отметить, что в условиях ценностного релятивизма духовность является единственным гарантом сохранения субъектности человека. Глобализация предлагает нам бесконечное количество масок, но только духовность позволяет сохранить лицо. Устойчивость личности сегодня зависит не от того, насколько человек может изолироваться от мира, а от того, насколько прочен его внутренний фундамент.

Для общества в целом развитие духовности — это вопрос национальной безопасности. Личность, обладающая твердыми ценностными ориентирами, способна к созидательному труду, ответственным социальным действиям и защите интересов своего народа в глобальной конкурентной среде. Духовность — это мост между прошлым и будущим, позволяющий нам идти вперед, оставаясь самими собой.

### Список использованной литературы:

1. Мирзиёев Ш. М. Стратегия развития Нового Узбекистана. — Ташкент: Tasvir, 2022.
2. Абу Наср аль-Фараби. Трактат о взглядах жителей добродетельного города. — Алматы: Гылым, 1991.
3. Бауман З. Текущая современность / Пер. с англ. под ред. Ю. В. Асочакова. — СПб.: Питер, 2008.
4. Бердяев Н. А. Дух и реальность. Основы богочеловеческой духовности. — М.: АСТ, 2006.
5. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / Пер. с англ. под науч. ред. О. И. Шкаратана. — М.: ГУ ВШЭ, 2000.
6. Муслимов Н. А. Маънавият — калб кўзгуси (Духовность — зеркало души). — Ташкент: Ma'naviyat, 2018. (на узб. яз.)
7. Франкл В. Человек в поисках смысла: Сборник / Пер. с англ. и нем. — М.: Прогресс, 1990.



8. Хайдеггер М. Время и бытие: Статьи и выступления / Пер. с нем. — М.: Республика, 1993.
9. Элиасберг Н. И. Гуманитарная экспертиза в образовании: ценностный подход // Педагогика. — 2014. — № 5.
10. Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006.



ЎЗБЕКИСТОНДА СЕЙСМИК ЖАРАЁНЛАР ТАДҚИҚОТИ ТАРИХИ

**Н.Н.Қурбонов**

Низомий номидаги

Ўзбекистон миллий педагогика

Университети т.ф.ф.д.

[nodirjonqurbonov3002@gmail.com](mailto:nodirjonqurbonov3002@gmail.com)

**Аннотация:** Ўзбекистонлик сейсмологлар томонидан зилзилалар содир бўлишини олдиндан аниқлаш масаласида кўплаб ишлар амалга оширилди ва дунё илм-фанига бир қатор янгиликлар киритилди. Бундай кашфиётлар зилзилаларни тадқиқ этишда муҳим аҳамият касб этди ва Ўзбекистон тарихи саҳифаларида муҳирланиб қолди.

**Калит сўзлар:** полигон, Тўхтағул, Чиркей, Талбинго, тадқиқот, билиш усули, зилзила, тажриба, чуқурлик, саёзлик, ўрганиш, ўргатиш, тажриба, талофат, офат, сейсмостанция, сейсмограф, сейсмоген.

Бугунги кунда дунё мамлакатларидаги энг долзарб муаммоли масалалардан бири зилзилалар натижасида вужудга келадиган зарарли оқибатларни камайтириш ҳисобланади. Ўзбекистонлик олимлар томонидан Геодинамик полигонларда зилзила даракчилари намоён бўлиш қонуниятларини ўрганиш орқали ушбу муаммони ҳал этилишига ҳаракат қилинди. Маълумки, техноген объектлардан табиий модел сифатида фойдаланган ҳолда ҳудудларда зилзилаларни тайёрланиш жараёни ва уларнинг даракчиларини намоён бўлиши орасидаги ўзаро боғлиқликни ўрганиш мумкин. Айнан шундай ўрганишлар Тўхтағул, Чиркей, Талбинго, Нурек, Азат сув омборларида олиб борилганлигини кўриш мумкин.

Чорвоқ сув омбори атрофида олиб борилган илмий изланишлар бошқа ҳудудлардагига нисбатан кенг кўламлиги билан ажралиб туради. Соҳа олимлари Қ.Н.Абдуллабеков, Е.Бердалиев, С.Х.Мақсудов, А.И.Тўйчиев ва бошқалар томонидан олинган илмий натижалар асосида кўплаб илмий адабиётлар чоп этилган бўлиб, уларда ер магнит майдонининг Чорвоқ сув омборида йиғилаётган сувнинг ҳажми ва сатҳи билан боғлиқ бўлган локал ўзгаришлар хусусиятлари ҳамда ўзгарувчан юкланишлар ҳосил қилинадиган ҳудудда моделлаш масалалари таҳлил қилинган. Маҳаллий сейсмологлар томонидан 1973 йилнинг декабридан бошлаб Чорвоқ сув омбори ҳудудидаги геомагнит тадқиқотлар 40 та пункт ва 122 та кузатув жойларида ўтказилди. Олиб борилган тадқиқот натижалари эса “Янгибозор” магнитоносфера расадхонасидаги геомагнит кузатувларда олинган маълумотлар нисбат қилинган ҳолда ҳисоблаб чиқишга эришилди.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, дунё давлатларида содир бўладиган ер силкинишларини олдиндан аниқлаш муҳим аҳамият касб этиб, бунда



зилзилалардан кўриладиган талофатларни камайтириш ва жонли ҳамда моллий талофатларни олдини олиш мумкин бўлади. Шу боис ўзбекистонлик олимлар узоқ йиллар давомида зилзила даракчиларини аниқлашга ҳаркат қилиб келади. Сейсмолог олимлар илмий тадқиқотлар ҳамда кузатувлар натижасида ютуқларга ҳам эришди ва зилзилаларни олдиндан айтиш борасида кашфиётлар яратиб, дунё мамлакатлари зилзилашуносларининг эътирофига сазовор бўлди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Абдуллабеков Қ. Зилзиладан сақланиш мумкинми. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - 21 б.
2. Юсупов В.Р. Геомагнит майдоннинг сув ҳажмининг ўзгариши ва зилзилалар билан боғлиқ аномалиялари. // XXI аср-интеллектуал ёшлар асри мавзусидаги республика илмий ва илмий-техник анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2018. – 191 б.
3. Тожиев М. Аҳолини ҳавфсизлигига оид ҳужжатлар // Муҳофаза +. 2013, № 11 (109). – 5 б.
4. Қурбонов Б. Зилзилани башоратлаш комиссияси // Муҳофаза +. 2008, № 5 (43). – 13 б.
5. ФВВ. Фавқулодда вазиятлар мониторинги ва башоратлаш маркази // Муҳофаза +. 2006, № 1. – 11 б.
6. Қурбонов Б. Зилзилаларни муддатли прогнозлаш // Муҳофаза +. 2022. № 1. – 9 б.



## ZAMONAVIY JAMIYATDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI

**Abdurashidova Marjona Sanjarbekovna**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Xalqaro jurnalistika fakulteti, 1-bosqich talabasi*  
[marjonaabdurashidova546@gmail.com](mailto:marjonaabdurashidova546@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashi, ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi hamda xulq-atvoriga ko'rsatayotgan ta'siri sotsiologik yondashuv asosida atroflicha tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda axborot almashinuvi, ijtimoiylashuv va o'zini namoyon etishning muhim instituti sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tahlili, muallifning shaxsiy fikrlari hamda umumlashma xulosalar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, dunyoqarash, raqamli jamiyat, ijtimoiy ong, sotsiologiya.

## THE IMPACT OF SOCIAL NETWORKS ON YOUTH WORLDVIEW IN MODERN SOCIETY

**Abdurashidova Marjona Sanjarbekovna**

*Uzbekistan State World Languages University,  
1st-year student of the Faculty of International Journalism*  
[marjonaabdurashidova546@gmail.com](mailto:marjonaabdurashidova546@gmail.com)

**ABSTRACT:** This scientific article analyzes the influence of social networks on the worldview, social consciousness, value system, and behavior of young people in modern society from a sociological perspective. Today, social networks function not only as communication tools but also as important institutions of socialization, information exchange, and self-expression. The article includes a review of foreign and local academic studies, the author's analytical views, and general conclusions.

**Key words:** social networks, youth, worldview, digital society, social consciousness, sociology.

Globalashuv va raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar tizimini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar jamiyatda muhim ijtimoiy institut sifatida shakllanib, yoshlar hayotida yetakchi o'rin egallamoqda. Yoshlar ushbu platformalar orqali axborot oladi, muloqot qiladi, o'z fikrini bildiradi va jamiyatdagi jarayonlarga munosabatini



shakllantiradi. Sotsiologiya fanida yoshlar jamiyatning eng faol va dinamik qatlami sifatida qaraladi. Shu bois, ijtimoiy tarmoqlarning aynan yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlash hamda ularni sotsiologik tahlil qilishdan iborat.

Ijtimoiy tarmoqlar dastlab shaxslararo muloqotni yengillashtirish vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, bugungi kunda ular keng ko'lamli ijtimoiy hodisaga aylandi. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar nafaqat axborot tarqatish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Sotsiolog M.Kastels ta'kidlaganidek, tarmoq jamiyati sharoitida ijtimoiy aloqalar raqamli maydonda shakllanadi va rivojlanadi. Bu holat yoshlarning real va virtual hayotni idrok etishida yangi yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda.

Dunyoqarash — bu shaxsning jamiyat, tabiat va o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi qarashlar tizimidir. Yoshlar dunyoqarashi esa ta'lim, oila, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Zamonaviy sharoitda ushbu omillar qatoriga ijtimoiy tarmoqlar ham qo'shildi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turli madaniyatlar, hayot tarzi va g'oyalar bilan tanishadi. Bu esa ularning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ayrim hollarda qarama-qarshi qadriyatlar to'qnashuviga ham olib keladi.

E.Giddens globallashtirish jarayonida ommaviy kommunikatsiya vositalari shaxs ongiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy inson axborot oqimi ta'sirida yashaydi. Shuningdek, P.Bourdieu ijtimoiy makon va ramziy kapital tushunchalari orqali ommaviy platformalarning shaxs ijtimoiy mavqeiga ta'sirini ochib beradi. Mahalliy olimlar, xususan, D.Karimova va X.To'raqulov tadqiqotlarida yoshlar sotsiologiyasi doirasida axborot makonining kengayishi yoshlar ongida yangi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirayotgani qayd etiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun bilim olish, o'zini rivojlantirish va ijtimoiy faollikni oshirish imkonini beradi. Turli onlayn ta'lim platformalari, ilmiy sahifalar va muhokama guruhlar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmasligiga, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy jihatlari ham mavjud. Virtual qaramlik, soxta axborotlar, vaqtni samarasiz sarflash yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda bu holat real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi.

Muallif fikricha, ijtimoiy tarmoqlarni mutlaqo salbiy hodisa sifatida baholash to'g'ri emas. Asosiy masala — ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirishdir. Agar yoshlar tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lsa, ijtimoiy tarmoqlar ularning dunyoqarashini boyituvchi vositaga aylanadi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim sotsiologik omil hisoblanadi. Ularning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish va salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun ta'lim, oila va jamiyat hamkorligi zarur.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2010.
2. Giddens A. Sociology. Cambridge: Polity Press, 2013.
3. Bourdieu P. Outline of a Theory of Practice. Cambridge University Press, 1977.
4. То‘рақулов Х. Sotsiologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
5. Karimova D. Yoshlar sotsiologiyasi. Toshkent: Fan, 2019.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING CHET  
TILINI EGALLASH JARAYONIDA KONVERGENT FIKRLASHINI  
RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Uchqurova Shahnoza Shavkat qizi**

<https://orcid.org/0009-0007-2764-3216>

Toshkent shahridagi Puchon universiteti

“Chet tillarni o'qitish kafedrası” P.f.f.d

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nofilologik oliy ta'lim muassasasi talabalarining chet tilini egallash jarayonida konvergent fikrlashini rivojlantirish usullari yoritilgan. Shuningdek, konvergent fikrlash tushunchasining mohiyati ochib berilib, uning chet tilini o'rganishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Aralash metodlarga asoslangan tajriba-sinov ishlari orqali konvergent fikrlashga yo'naltirilgan mashqlarning talabalarning grammatik aniqligi, mantiqiy tahlil qilish va to'g'ri yechimni topish ko'nikmalariga ta'siri o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** konvergent fikrlash, chet tilini o'rganish, nofilologik oliy ta'lim, mantiqiy fikrlash, grammatik kompetensiya, til o'qitish metodikasi, ta'lim samaradorligi

Bugungi globallashuv sharoitida chet tilini bilish oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun muhim kasbiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun chet tili kasbiy axborotni o'zlashtirish, xalqaro muloqot va professional faoliyatni samarali amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar chet tilini egallash jarayonida grammatik va leksik birliklardan to'g'ri foydalanishda, mantiqiy xulosa chiqarishda va aniq javobni topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Mazkur muammolarni bartaraf etishda konvergent fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Konvergent fikrlash talabaning mavjud bilimlar, qoidalar va mantiqiy tahlil asosida yagona to'g'ri yechimni topish qobiliyatini ifodalaydi.

Psixologiya va pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda fikrlash turlari, xususan, konvergent va divergent fikrlash tushunchalari J. Gilford, R. Sternberg, L. Vygotskiy kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Konvergent fikrlash — bu kognitiv psixologiya va ijodiylik tadqiqotlarida muhim kontseptsiya bo'lib, Joy Paul Guilford tomonidan divergent fikrlashning aksincha jarayoni sifatida tasvirlangan (Guilford, 1967). Konvergent fikrlash, odatda, aniq va yagona to'g'ri javobi mavjud bo'lgan vazifalarni hal qilish qobiliyatini anglatadi. Bu turdagi fikrlash shakli ko'pincha standartlashtirilgan intellekt testlarida, maktab fanlaridagi ko'p tanlovli testlarda hamda ijodiy talablar past bo'lgan akademik topshiriqlarda kuzatiladi (Runco & Acar, 2012).




Chet tillarini o'qitish metodikasida esa konvergent fikrlash grammatik kompetensiya, til qoidalarini qo'llash, test topshiriqlarini bajarish va xatolarni aniqlash jarayonlari bilan bevosita bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda (Ellis, Harmer, Richards) chet tilini o'rganishda mantiqiy tahlil va reflektiv yondashuv talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirishi ta'kidlanadi. Nofilologik oliy ta'lim muassasasi talabalarining chet tilini egallashda konvergent fikrlashni rivojlantirish jarayonida talaba muammo, masala yoki xatolikning yechimni topishga intiladi, bu esa mantiqiy tahlil, qoidalarga amal qilish va mavjud bilimlarni tizimli qo'llashni talab qiladi. Shu bilan birga, bu turdagi fikrlash ijodiy yoki noan'anaviy yechimlarni ishlab chiqishdan ko'ra, standart va qabul qilingan javoblarni topishga yo'naltirilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, konvergent fikrlash yuqori intellektual qobiliyat va aniqlikni talab qiladigan vazifalarda muvaffaqiyat bilan bog'liq (Cropley, 2006).

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalar kontekstida konvergent fikrlashni rivojlantirish masalasi yetarlicha chuqur o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, konvergent fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi mashq turlarida samarali natijalarni beradi: (1-rasm)

Bunda strukturaviy mashqlar asosida grammatik, leksik va mantiqiy vazifalarni yechish orqali talabalarning to'g'ri javobni aniqlash qobiliyatini oshiradi. Test va baholash mashqlarni bajarish asosida ko'p tanlovli va standartlashtirilgan topshiriqlar orqali talabalar analitik fikrlashni mustahkamlaydi. Tahlil va tahliliy yozuv mashqlarni bajarishda talabalar olingan ma'lumotlarni sintez qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish orqali konvergent fikrlashni rivojlantiradi. Interaktiv pedagogik metodlar esa guruh ishlari va muammoli vazifalar orqali talabalarning yechimga yo'naltirilgan fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. (1-jadval)



1-rasm. Konvergent fikrlashni rivojlantirishda mashq turlari.

1-jadval.

**Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalar kontekstida konvergent fikrlashni rivojlantirish mashqlar misolida**

Strukturaviy mashqlar (Grammatik, leksik va mantiqiy)	Test va baholash mashqlari (Ko'p tanlovli va standartlashtirilgan topshiriqlar)
--	---



<p><b>Grammatik mashq: To'ldirish vazifasi</b> Fill in the blanks with the correct form of the verb: She ___ (go) to the library every day. They ___ (study) English for three years. Leksik mashq: Sinonimlarni topish</p> <p><b>Match the words with their synonyms:</b> Begin – ___ a) Finish b) Start c) Continue</p> <p><b>Mantiqiy mashq: To'g'ri variantni tanlash</b> Which sentence is correct? a) He don't like coffee. b) He doesn't like coffee. c) He doesn't likes coffee.</p>	<p><b>Ko'p tanlovli savol:</b> Choose the correct answer: "If I ___ earlier, I wouldn't have missed the bus." a) left b) had left c) leave</p> <p><b>O'qish tushunishi:</b> Read the passage and answer the question: "John went to the shop. He bought milk and bread. Then he went home." Question: What did John buy? a) Milk and bread b) Only milk c) Only bread</p>
Tahlil va tahliliy yozuv mashqlari	Interaktiv pedagogik metodlar (Guruh ishlari va muammoli vazifalar)
<p><b>Tahliliy yozuv:</b> Read the short text and answer the questions: "Ali visited three cities last summer: Paris, London, and Rome. He stayed in each city for three days. In Paris, he saw the Eiffel Tower; in London, he visited the British Museum; in Rome, he went to the Colosseum." Questions: a. How many cities did Ali visit? b. Where did he see the Colosseum?</p> <p><b>Ma'lumotlarni tartiblash mashqi:</b> Arrange the events in the correct order: a. Go to the library b. Write a report c. Conduct research</p>	<p><b>1. Guruhda muammo yechish:</b> Task: Your group is planning a one-day trip. You have a budget of \$50 per person. Decide which places to visit and create an itinerary. Present your plan to the class.</p> <p><b>2. Muammoli topshiriq (Role-play):</b> Scenario: You are at the airport and your flight is delayed. Work in pairs to solve the problem and explain your solution.</p> <p><b>3. "Correct or Incorrect?" o'yini:</b> Teacher reads sentences, students in groups discuss and vote: "He don't have any homework today." (Incorrect) "She has finished her project." (Correct)</p>

O'quv jarayonida test topshiriqlari, ko'p tanlovli mashqlar, muammoli vaziyatlarga yagona yechim topishga yo'naltirilgan topshiriqlar va strukturaviy mashqlarni tizimli qo'llash talabalarning analitik fikrlashini kuchaytirib, ularning til



kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, konvergent fikrlashni rivojlantirish talabalarning akademik mustaqilligi va o'z bilimlarini baholash qobiliyatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish jarayonida konvergent fikrlashni maqsadli va tizimli rivojlantirish talabalarning til o'zlashtirish samaradorligini oshirish bilan birga, ularning kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan mantiqiy va analitik kompetensiyalarni shakllantirishga zamin yaratadi. Shu bois, chet tili ta'limida konvergent va divergent fikrlashni uyg'unlashtirgan metodik yondashuvlarni joriy etish dolzarb pedagogik vazifa sifatida qaralishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill.
2. Runco, M. A., & Acar, S. (2012). Divergent Thinking as an Indicator of Creative Potential. *Creativity Research Journal*, 24(1), 66–75.
3. Crompton, A. (2006). In Praise of Convergent Thinking. *Creativity Research Journal*, 18(3), 391–404.
4. Yusubjonova G.S. Zamonaviy ta'lim jarayonida konvergent kompetentlik va o'quv dasturini integrativ loyihalash. *Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali*. 331-336.



## ЦИФРОВАЯ КОММУНИКАЦИОННАЯ СРЕДА КАК ФАКТОР ОПТИМИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

**Юсупова Заррина**

преподаватель, PhD кафедры английского языка  
Самаркандский государственный институт иностранных языков,  
Самарканд, Узбекистан  
Email: [yasi\\_amir@mail.ru](mailto:yasi_amir@mail.ru)

**Аннотация:** В статье рассматривается роль цифровых коммуникаций в процессе обучения английскому языку. Анализируются различные формы цифрового взаимодействия: мессенджеры, видеоконференции, социальные сети и образовательные платформы. Особое внимание уделяется преимуществам цифровых технологий, таким как гибкость обучения, развитие коммуникативной компетенции и повышение мотивации студентов. Также рассматриваются основные проблемы и вызовы, связанные с использованием цифровых инструментов, включая технические ограничения, необходимость цифровой грамотности и поддержание живого общения. Статья предназначена для педагогов и исследователей, заинтересованных в интеграции цифровых технологий в обучение английскому языку.

**Ключевые слова:** цифровые коммуникации, обучение английскому языку, онлайн-платформы, интерактивные технологии, коммуникативная компетенция, образовательные приложения, искусственный интеллект.

В мире информационных технологий цифровые ресурсы становятся неотъемлемой частью образовательного процесса. Их использование в обучении английскому языку открывает возможности для формирования всех видов языковых компетенций: чтения, письма, устной речи и аудирования. Цифровые коммуникации способствуют интеграции учебного материала в повседневную практику, создавая среду для активного взаимодействия студентов и преподавателей. Цифровые коммуникации ныне используются как инструмент обучения. Также они включают в себя различные средства взаимодействия:

1. Мессенджеры и чаты. WhatsApp, Telegram, Discord позволяют создавать языковые группы, где студенты обмениваются сообщениями на английском языке, получают обратную связь и практикуют язык в естественных условиях общения.
2. Видеоконференции и онлайн-классы. Платформы Zoom, Microsoft Teams, Google Meet дают возможность проводить интерактивные уроки, участвовать в обсуждениях, разыгрывать диалоги и корректировать произношение и грамматику в режиме реального времени.



3. Социальные сети и образовательные платформы. Instagram, YouTube, TikTok, а также специализированные платформы (Duolingo, LingQ, ChatGPT) позволяют студентам погружаться в языковую среду, изучать лексику, идиомы, сленг, а также культурные особенности англоговорящих стран.

4. Интерактивные приложения и игры. Викторины, квесты и интерактивные упражнения делают процесс обучения увлекательным, повышая мотивацию и закрепляя изученный материал.

Существует множество преимуществ использования цифровых коммуникаций, таких как:

- Гибкость и доступность. Возможность заниматься в любое время и в любом месте.
- Развитие коммуникативной компетенции. Постоянное взаимодействие с носителями языка и другими студентами помогает преодолевать языковой барьер.
- Персонализация обучения. Цифровые платформы позволяют подстраивать материал под уровень каждого студента.
- Повышение мотивации. Использование мультимедиа, видео и игр делает процесс изучения языка интересным.

Но помимо этого также есть проблемы и вызовы, к примеру:

- Технические ограничения. Не у всех студентов есть доступ к современным устройствам и качественному интернету.
- Снижение живого общения. Избыточное использование цифровых платформ может ограничивать практику устной речи.
- Необходимость цифровой грамотности. Преподаватели и студенты должны владеть навыками работы с платформами и приложениями.

Суммируя можем сказать, что цифровые коммуникации открывают новые возможности для обучения английскому языку, делая процесс гибким, интерактивным и мотивирующим. Эффективное использование цифровых инструментов требует баланса между онлайн- и офлайн-активностями, доступности ресурсов и развития цифровой грамотности у всех участников учебного процесса.

### **Список литературы:**

1. Warschauer, M. (2000). The role of technology in language learning. TESOL Quarterly.
2. Godwin-Jones, R. (2018). Emerging technologies in language learning. Language Learning & Technology.



3. Hubbard, P. (2020). Computer-assisted language learning. Oxford University Press.
4. Stockwell, G., & Hubbard, P. (2013). Some emerging trends in CALL. CALICO Journal.



## TALABALAR NUTQIDAGI VARVARIZMLARNI BARTARAF ETISHDA KREATIV VA RAQAMLI YONDASHUVLAR

**Djakbarova Mahliyo Ibraximjonovna,**

NamDPI Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari  
kafedrası katta o'qituvchisi, PhD, Xalq ta'limi a'lochisi.

[mahliyoibraximjonovna@gmail.com](mailto:mahliyoibraximjonovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqola pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida keng tarqalgan nutq xatolari – varvarizmlar muammosiga bag'ishlangan. Tadqiqotda varvarizmlarning leksik, grammatik, fonetik va 36 pedagogic36 turlari tahlili qilinib, ularning tarixiy kelib chiqishi va zamonaviy ko'payish sabablari (globalashuv, raqamli kommunikatsiya, adabiy tilga e'tiborsizlik) ochib berilgan. Maqolaning asosiy maqsadi talabalar nutq madaniyatini oshirish va varvarizmlarni bartaraf etish uchun kreativ va raqamli yondashuvlarni taklif qilish.

**Kalit so'zlar:** *varvarizm, nutq madaniyati, o'zbek tili, talabalar nutqi, leksik xatolar, innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar, til o'zlashtirish, til sofligi, grammatik me'yor.*

**Аннотация.** Статья посвящена проблеме варваризмов – распространенных речевых ошибок у студентов педагогических вузов. В исследовании проанализированы лексические, грамматические, фонетические и структурные типы варваризмов, раскрыты их историческое происхождение и причины современного размножения (глобализация, цифровая коммуникация, пренебрежение литературным языком). Основная цель статьи – предложить креативные и цифровые подходы для повышения культуры речи студентов и устранения варваризмов.

**Ключевые слова:** *варваризм, культура речи, узбекский язык, студенческая речь, лексические ошибки, инновационная педагогика, цифровые технологии, усвоение языка, чистота языка, грамматическая норма.*

**Abstract.** The article is devoted to the problem of common speech errors – barbarisms – among students of pedagogical higher educational institutions. The study analyzes the lexical, grammatical, phonetic, and structural types of barbarisms, revealing their historical origin and the reasons for their modern increase (globalization, digital communication, neglect of the literary language). The main goal of the article is to propose creative and digital approaches to improve students' speech culture and eliminate barbarisms.

**Keywords:** *barbarism, speech culture, Uzbek language, student speech, lexical errors, innovative pedagogy, digital technologies, language acquisition, language purity, grammatical norm.*

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri nafaqat yuqori malakali, balki o'z nutqini madaniy, aniq va ravon ifodalaydigan mutaxassislarni tayyorlashdir.



Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa birinchi kurs talabalarida, nutqning turli sohalariga xos varvarizmlar keng tarqalgan holat kuzatilmoqda. Varvarizmlar til me'yorlari va adabiy normalarga zid bo'lgan so'z va iboralarning noto'g'ri qo'llanilishidir. Ular odatda leksik, grammatik, fonetik va 37edagogic37 turlarga bo'linadi.

An'anaviy o'qitish metodlari (diktant, mashqlar, grammatika qoidalarini takrorlash) ma'lum darajada samara berishiga qaramay, zamonaviy raqamli avlod talabalarining e'tiborini jalb qilish va ularga nutq madaniyatini samarali o'rgatish uchun yangi, innovatsion yondashuvlarni qo'llash talab etiladi. Ushbu maqolaning maqsadi talabalar nutqidagi varvarizmlarni bartaraf etishning zamonaviy va samarali usullarini o'rganish, shuningdek ularning amaliyotda qo'llanilishiga doir takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

### **Varvarizmlarning tarixiy kelib chiqishi va o'zbek tilidagi o'rni**

Tarixdan ma'lumki, dunyoda hech bir til sofligicha, ya'ni boshqa tillardan so'z olmay rivojlanmagan. O'zbek tili ham arab, fors-tojik, mo'g'ul, xitoy, rus va u orqali Yevropa tillaridan so'z olib, boyib, rivojlanib kelmoqda. O'zbek 37edago xalqlari o'rtasidagi munosabatlar XIX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni O'rta Osiyo rus mustamlakachilari tomonidan bosib olinganidan keyin keng quloq yozdi. Natijada o'zbek tilining lug'at tarkibiga savdo, transport, moliya, pochta-telegraf, sanoat, harbiy, ma'muriy, uy-joy anjomlari, tibbiyot, san'at-adabiyot va boshqa sohalariga oid ko'pgina so'z va atamalar kira boshladi.

O'zbek tili leksikasiga rus tilidan kirgan so'zlar uch xil usulda o'zlashtirilgan:

1. **Aynan 37edago shaklida:** pochta, telegraf, bank, 37edago.
2. **Fonetik o'zgarishlar bilan:** fabrika → fabrika, 37edago → 37edago, gubernator → gubernator, fonar → fonus.
3. **Kalka holda:** jeleznaya doroga → temir yo'l, doshkolniy → maktabgacha.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili tarixan rus va u orqali boshqa Yevropa tillaridan ko'plab so'zlarni o'zlashtirib, ularni o'z tizimiga moslashtirgan. Bu jarayon tabiiy va madaniy almashish natijasidir.

### **Zamonaviy davrda varvarizmlarning ko'payish sabablari**

Bugungi kunda globallashuv va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan ingliz tili dunyo tillariga, jumladan o'zbek tiliga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, bu ta'sir ko'pincha varvarizm – begona so'zlarning o'z tiliga noo'rin va ortiqcha aralashtirilishi hodisasini keltirib chiqarmoqda.

Nutqimizda quyidagi holatlarni tez-tez uchratamiz:

“ok” deb javob berish o'rniga “xo'p”, “yaxshi”, “bo'ldi” demaslik.

“like qilmoq” yoki “share bermoq” kabi so'zlamalar o'z so'zlari (yoqtirmoq, ulashmoq) mavjud bo'lsa-da, ularning o'rnini bosishi.

“bro”, “easy”, “check qilmoq” kabi so'z birikmalarining bemalol ishlatilishi.

### **Talabalar nutqidagi varvarizmlarning asosiy manbalari:**

1. **Internet-kommunikatsiyaning ta'siri:** “Alo” (salom), “kruto” (a'lo), “kaif” (yoqimli) kabi internet-jargonning keng tarqalishi.

2. **Adabiy tilga yetarlicha e'tiborsizlik:** mumtoz va zamonaviy adabiy asarlar, sifatli jurnalistika matnlarini kam o'qish.



3. **Nutqiy ehtiyojning pasayishi:** og‘zaki va yozma nutqda qisqa, tezkor xabarlar ustunlik qilishi, murakkab sintaktik qoliplardan qochish.

4. **Sheva va lahjalarning ta’siri:** ma’lum bir hududdan kelgan talabalarda mahalliy sheva unsurlarining adabiy tilga aralashishi.

#### Varvarizmlarning tasnifi

Talabalar nutqida uchraydigan varvarizmlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Fonetik varvarizmlar	Leksik varvarizmlar	Grammatik varvarizmlar
So‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish (masalan, “stakan” o‘rniga “istakan”, “proekt” o‘rniga “proyekt”)	So‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash (masalan, “nazorat qilmoq” o‘rniga “kontrol qilmoq”, “ta’sir” o‘rniga “effekt”)	So‘z yasalishi va gap qurilishidagi xatolar (masalan, “ikki soat” o‘rniga “ikki soatlar”, “yoki” o‘rniga “yokida”)

#### Varvarizmlarni bartaraf etishning innovatsion usullari

##### 5. Raqamli texnologiyalardan foydalanish.

**Maxsus ilovalar:** talabalar uchun “Matn tekshiruvi”, “Imlo qoidalari”, “Izoh.uz” kabi ilovalar orqali bilimlarni interaktiv shaklda tekshirish imkoniyatini yaratish. Bu ilovalarda testlar, topishmoqlar, tarjima xizmatlari mavjud.

**Onlayn platformalar:** nutq madaniyatiga oid kurslar, videodarslar va interaktiv mashqlarni taqdim etadigan platformalar yaratish.

##### 2. Pedagogik innovatsiyalar.

**Revers (teskari) ma’ruza usuli:** o‘qituvchi ma’ruza davomida ataylab ma’lum miqdorda grammatik yoki leksik xatolarni (“varvarizmlarni”) qo‘llaydi. Talabalar ushbu xatolarni aniqlash va tuzatish vazifasini bajaradi.

**Loyihalar asosida o‘qitish:** talabalarga ma’lum mavzuda video-blog (vlog) yoki 38edagog tayyorlash vazifasi berish, so‘ngra sinfda nutqdagi xatolarni birgalikda tahlil qilish.

##### 6. Jamiyat ishtirokini ta’minlash.

**“Til kuzatuvchilari” to‘garagi:** ommaviy axborot vositalaridagi nutq so‘zlashdagi xatolarini to‘plash, tahlil qilish va muhokama qilish.

**Til softligiga oid targ‘ibot:** jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida, ona tili qadri va uning softligini saqlash muhimligi haqida ma’ruzalar, seminarlar, loyihalar tashkil etish.

**O‘zbekcha muqobillar ishlab chiqish:** yangi tushunchalar va so‘zlar uchun o‘zbekcha muqobillar (“brauzer” o‘rniga “ko‘rgich”, “link” o‘rniga “havola”) ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish.

##### 4. Fanlararo bog‘lanishni rivojlantirish.

**Pedagogika institutidagi barcha yo‘nalish talabalarining ishtiroki:** varvarizmlarni tuzatish nafaqat filologlar, balki barcha oliy o‘quv yurti o‘qituvchilarining birgalikdagi vazifasi sifatida qaralishi lozim.

**Integratsiyalashgan dasturlar:** har bir fandan til to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zida aks ettiruvchi dasturlarni ishlab chiqish.

**Xulosa.** Til – millat qalbidir. Uni asrab-avaylash har birimizning burchidir. Tarixiy misollar ko‘rsatganidek, til o‘zlashtirish tabiiy jarayon, ammo uni idrok



etmasdan emas, balki ongli va me'yorli amalga oshirish lozim. Inglizcha so'zlarning hamma joyda va hammadan tortib qo'llanilishi o'rniga, ularni faqat zarurat bo'lganda va o'zbekcha muqobili mavjud bo'lmaganda ishlatish – bu bizning tilimiz va madaniyatimizni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishning kalitidir. An'anaviy usullar asos bo'lib qolsa-da, zamonaviy pedagogik ta'limga talablarga mos innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Taklif etilayotgan innovatsion usullar talabalarning faolligini oshiradi, ularga nutqidagi xatolarni tuzatish imkoniyatini beradi va eng muhimi, sog'lom nutq madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayonga aylantiradi. Natijada, nafaqat nutqdagi xatolar kamayadi, balki talabalarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish va o'z fikrlarini aniq ifoda etish qobiliyatlari ham rivojlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 1994. – 34-bet.
2. Djakbarova M. Ona tili. Darslik. Toshkent: "Metodist" – 2025.
3. Mahmudov N., Bo'ronov S. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Universitet, 2015.
4. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Rajabov Q. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2020.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

MINTAQAVIY TURIZMNI TARTIBGA SOLISHNING O‘ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI

**Jumaniyazova Ozodaxon Zaripboy qizi,**  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktranti,  
[ozodaxon.jumaniyazova2000@gmail.com](mailto:ozodaxon.jumaniyazova2000@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqaviy turizmni tartibga solish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va uni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqaviy turizmni samarali tartibga solish yuzasidan xulosa va takliflar yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается необходимость регулирования регионального туризма, существующие возможности в этой области и особенности его реализации. Также приводятся выводы и предложения по эффективному регулированию регионального туризма.

**Abstract.** This article discusses the need for regional tourism regulation, its current opportunities, and the specifics of its implementation. It also provides conclusions and suggestions for effective regional tourism regulation.

**Kalit so‘zlar.** Turizm, mintaqaviy turizm, tartibga solish, strategiya, infratuzilma, mintaq.

**Ключевые слова.** Туризм, региональный туризм, регулирование, стратегия, инфраструктура, регион.

**Key words.** Tourism, regional tourism, regulation, strategy, infrastructure, region.

Mintaqaviy turizmni tartibga solish hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. Turizm sohasi aholining dam olishi va madaniy ehtiyojlarini qondirish, hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy budjet daromadlarini oshirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Aslida, mamlakatimizda turizm ishiga mustaqillikning dastlabki vaqtlaridanoq asosiy davlat siyosati darajasida qaraldi [1]. Bu bo‘yicha qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi. Xususan, qabul qilingan qonunning maqsadi bo‘lib turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga solish lozimligi yoritilgan [2]. Shu bois, mintaqaviy turizmni samarali tartibga solish masalasi davlat siyosatida alohida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Mintaqaviy turizm ma‘lum hududga qaratilgan, ijtimoiy yo‘naltirilgan yani inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan hamda mikro va makro darajada daromadlar olishga mo‘ljallangan faoliyatni o‘z ichiga oladi [3]. Mintaqaviy turizmni tartibga solishning eng asosiy o‘ziga xos xususiyati shundaki, u markazlashgan yagona modelga emas, ya‘ni har bir hududning tabiiy, tarixiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatiga mos holda amalga oshiriladi. Har bir mintaq o‘zining noyob



turistik resurslariga ega bo‘lib, ulardan foydalanish darajasi, infratuzilmaning rivojlanganligi va xizmatlar sifati bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bois, uchun mintaqaviy turizmni tartibga solishda universal yondashuv emas, ya’ni differensial va moslashuvchan mexanizmlar qo‘llanilishi zarur.

Mintaqaviy turizmni tartibga solishning yana bir muhim xususiyati bo‘lib davlat va mahalliy boshqaruv organlarining o‘zaro uyg‘un hamkorligi hisoblanadi. Markaziy darajada turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha umumiy strategiya, qonunchilik asoslari va milliy dasturlar ishlab chiqilsa, hududiy darajada mazkur strategiyalarni amalga oshirish, mahalliy sharoitlarga moslashtirish va aniq loyihalarni hayotga tatbiq etish ta’minlanadi. Ushbu jarayonda mahalliy hokimiyat organlarining tashabbuskorligi va mas’uliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mintaqaviy turizmni tartibga solishda bozor mexanizmlari bilan davlat ta’sir choralarning uyg‘unlashuvi ham muhim xususiyati bo‘lib hisoblanadi. Bir tomondan, turizm sohasida xususiy sektorning faol ishtirokini rag‘batlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish talab etiladi. Ikkinchi tomondan esa davlat tomonidan litsenziyalash, standartlashtirish, xavfsizlikni ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va madaniy meros ob’ektlarini asrash kabi tartibga solish funksiyalari amalga oshirilishi zarur. Mazkur yo‘nalishlarning mutanosibligi mintaqaviy turizmning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Mintaqaviy turizmni tartibga solishning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri hududiy infratuzilmaning holati bilan uzviy bog‘liqligi hisoblanadi. Turizmning samarali rivojlanishi transport, kommunikatsiya, mehmonxona xo‘jaligi, ovqatlanish, axborot xizmatlari va servis sohaslarining rivojlanganligini talab qiladi. Ayrim mintaqalarda turistik resurslar yuqori salohiyatga ega bo‘lsa-da, infratuzilmaning yetarli darajada emasligi ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Shu bois, mintaqaviy turizmni tartibga solishda infratuzilmaviy loyihalarga alohida e’tibor qaratiladi.

Ijtimoiy omillar ham mintaqaviy turizmni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Turizmning rivojlanishi mahalliy aholining bandligini oshiradi, daromad manbalarini kengaytiradi va hayot sifatini yaxshilaydi. Biroq, noto‘g‘ri yoki nazoratsiz rivojlanish holatlarida turizm mahalliy aholi manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, narxlarning oshishi yoki madaniy qadriyatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, mintaqaviy turizmni tartibga solishda ijtimoiy manfaatlar, aholi fikri va jamoatchilik ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik barqarorlik mintaqaviy turizmni tartibga solishning ajralmas xususiyati bo‘lib hisoblanadi. Ko‘pgina turistik hududlar tabiiy resurslarga boy bo‘lib, ularni asrash va oqilona foydalanish ustuvor vazifa sanaladi. Turizm faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish, ekologik turizmni rivojlantirish va “yashil” standartlarni joriy etish mintaqaviy darajada tartibga solishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu esa turizmning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi. Shular bilan birgalikda mintaqaviy turizmni tartibga solishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platformalar, onlayn bron qilish tizimlari, elektron marketing va axborot resurslari turistik xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi hamda



hududlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli ma'lumotlar asosida tahlil va prognoz qilish imkoniyatlari mintaqaviy turizm siyosatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy turizmni tartibga solish ko'p qirrali, murakkab va tizimli jarayon sifatida iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari hududiy farqlar, mahalliy salohiyat, davlat va xususiy sektor hamkorligi, infratuzilma rivoji hamda barqarorlik tamoyillari bilan belgilanadi. Samarali tartibga solish natijasida esa mintaqalarning turistik jozibadorligi oshadi, aholi farovonligi yuksaladi va milliy iqtisodiyot rivojiga salmoqli hissa qo'shiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirzayev M.A. Turizm asoslari: bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / M.A.Mirzayev, M.T.Aliyeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. - 288 b. - 18 b.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/-4428097>

3. Xidirova G.R. Mintaqaviy turizm [Matn]: o'quv qo'llanma / G.R.Xidirova, F.M.Raxmatullayeva. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 16 b.



## O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARI RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINING KONSEPTUAL VA AMALIY JIHATLARI

**Mengniyozov Anvar Normurodovich.**

Termiz davlat universiteti  
Moliya kafedrası katta o‘qituvchisi.  
[mengniyozov77@gmail.com](mailto:mengniyozov77@gmail.com).

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy-tadqiqot ishi (tezis) O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish jarayonlarini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda bank xizmatlari bozorining an’anaviy modellaridan raqamli ekotizim va platforma modellariga o‘tish evolyutsiyasi, xususan, rivojlangan davlatlar tajribasi qiyosiy o‘rganilgan. O‘zbekistonning 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi va neobanklarning (TBC, Anorbank) hamda fintex-ekotizimlarning (Uzum) paydo bo‘lishi fenomenlari tadqiq qilingan. Ishda raqamli transformatsiyaning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, yuzaga kelayotgan xatarlar – muammoli kreditlarning (NPL) o‘sishi, kiberxavfsizlik tahdidlari va kadrlar salohiyati bilan bog‘liq muammolar tizimli tahlil qilingan. Olingan natijalar asosida milliy bank tizimini barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** bank mahsuloti, moliyaviy instrument, foiz stavkasi, bank xizmatlari, raqamli bank, fintex, neobank, bank instrumentlari, bank operatsiyalari, raqamli transformatsiya, bank ekotizimi.

Bugungi kunda jahon moliyaviy arxitekturasi tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. “To‘rtinchi sanoat inqilobi” (Industry 4.0) sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishi bank ishining mohiyatini o‘zgartirib yubordi. Banklar endilikda faqat kapitalni qayta taqsimlovchi moliyaviy vositachilar emas, balki katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) qayta ishlovchi, sun’iy intellektga asoslangan va mijozning kundalik hayotiga integratsiya qilingan texnologik platformalar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi uchun ushbu jarayonlar ikki barobar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, mamlakat uzoq yillar davomida davlat ishtiroki yuqori bo‘lgan, raqobat muhiti cheklangan yopiq bank tizimiga ega edi. Ikkinchidan, aholining demografik o‘sishi va yoshlar qatlamining ustunligi raqamli xizmatlarga bo‘lgan talabni tabiiy ravishda oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi sohani bozor mexanizmlariga o‘tkazish va raqamlashtirishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Bank xizmatlarini raqamlashtirishni tushunish uchun, avvalo, bank tizimining tarixiy rivojlanish mantig‘ini anglash zarur. Iqtisodiy adabiyotlarda, xususan, tadqiqotlarda bank biznesi modellarining quyidagi bosqichlari ajratib ko‘rsatiladi:



Birinchi bosqich – Inflyatsion o‘shish modeli (1989–1994 yillar). Ushbu bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tish davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda banklar asosan giperinflyatsiya sharoitida faoliyat yuritib, iqtisodiyotdagi daromadlarni banklar foydasiga qayta taqsimlash mexanizmi sifatida xizmat qilgan. Daromadlar asosan spekulyativ operatsiyalar va valyuta kursining o‘zgarishi hisobiga shakllangan. Bu davrda bank aktivlari eksponentsial o‘sgan bo‘lsa-da, real sektorga xizmat ko‘rsatish darajasi past bo‘lgan.

Ikkinchi bosqich – Moliyaviy arbitraj va inqiroz (1995–1998 yillar). Raqobatning kuchayishi va an’anaviy marjaning pasayishi banklarni moliya bozorlaridagi arbitraj operatsiyalariga undadi. Biroq, davlat qimmatli qog‘ozlari (DQMO) bozorida piramidalar va makroiqtisodiy beqarorlik tizimli inqirozlarga olib keldi. Bu davr banklarning xatarlarni boshqarish tizimiga ega emasligi va mijozga yo‘naltirilmaganligi bilan xarakterlanadi.

Uchinchi bosqich – Moliyaviy vositachilik va intensiv o‘shish (1999–2008 yillar). Inqirozlardan so‘ng banklar klassik moliyaviy vositachilik funksiyasiga qaytdilar. Iqtisodiy o‘shish fonida kreditlash hajmi oshdi, aholi omonatlari banklarga qayta boshladi. O‘zbekistonda ham ushbu bosqich uzoq davom etdi, bunda banklar asosan korporativ mijozlarni kreditlash va davlat dasturlarini moliyalashtirishga e‘tibor qaratdi.

To‘rtinchi bosqich – Raqamli ekotizim va platformali biznes-model (2008-yildan hozirgi davrgacha). Bugungi kunda an’anaviy bank xizmatlari (kredit, depozit, to‘lov) tovarlashib, ularning marjasi keskin pasaymoqda. Banklar endilikda faqat moliyaviy xizmatlar bilan cheklanib qolmay, mijozning “hayotiy vaziyatlarini” hal qiluvchi ekotizimlarga aylanmoqda.

Quyidagi 1-jadvalda an’anaviy va raqamli bank modellari o‘rtasidagi farqlar qiyosiy tahlil qilingan:

1-jadval.

**An’anaviy va raqamli bank modellari o‘rtasidagi qiyosiy farqlar<sup>1</sup>.**

Mezonlar	An’anaviy bank modeli	Raqamli ekotizim modeli
<b>Diqqat markazi</b>	Mahsulot (kredit, karta) sotish	Mijoz ehtiyojini (uy olish, sayohat) qondirish
<b>O‘zaro aloqa kanali</b>	Filiallar, ofislar	Mobil ilova, marketpleys, ijtimoiy tarmoqlar
<b>Ma’lumotlar tahlili</b>	Cheklangan (kredit tarixi)	Katta ma’lumotlar (Big Data, xulq-atvor)
<b>IT-arxitektura</b>	Yopiq, monolit tizimlar	Ochiq API, mikro servislar
<b>Raqobat ustunligi</b>	Filiallar tarmog‘i, kapital hajmi	Tezlik, qulaylik (UX/UI), shaxsiylashtirish

Raqamlashtirish sharoitida “bank xizmati” tushunchasining o‘zi ham transformatsiyaga uchramoqda. Ilmiy adabiyotlarda bu borada turli yondashuvlar

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan



mavjud. I.S. Didenko bank xizmatini “mijoz ehtiyojini qondirishga qaratilgan bank operatsiyalari yig‘indisi” deb ta’riflasi, O.X. Gagiyeva uni “xizmat ko‘rsatish jarayoni” sifatida ko‘radi.

Raqamli iqtisodiyotda bank xizmati va mahsuloti o‘rtasidagi chegara yo‘qolmoqda. Masalan, mobil ilova orqali bir zunda ajratiladigan mikro kredit – bu mahsulotmi yoki xizmat?

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya bank mahsulotining emas, balki aynan xizmat ko‘rsatish usulining o‘zgarishiga olib keldi. Mijoz bankka bormasdan, 24/7 rejimida xizmat olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa bank xizmatining eksterritoriallik (hududga bog‘lanmaganlik) xususiyatini kuchaytirdi.

O‘zbekiston bank tizimining uzoq yillar davomida davlat nazorati ostida bo‘lishi uning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 2020-yil holatiga ko‘ra, bank tizimi aktivlarining 80 foizdan ortig‘i davlat banklari hissasiga to‘g‘ri kelardi. Bu holat raqobatning yo‘qligiga, xizmatlar sifatining pastligiga va mijozlarda tanlov imkoniyatining cheklanishiga olib keldi.

2020 – 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi:

1. Davlat ulushini kamaytirish va xususiy kapitalni jalb qilish.
2. Aktivlar sifatini yaxshilash va xatarlarni boshqarish.
3. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

So‘ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida bank tizimi aktivlarida davlat banklarining hissasi 2026 yil 1 yanvar holatiga 60 foizni tashkil qildi.

Strategiya doirasida qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar, xususan, “raqamli bank” tushunchasining paydo bo‘lishiga, jismoniy ofislarga ega bo‘lmagan banklarni tashkil etishga yo‘l ochdi. Bu esa TBC Bank, Anorbank kabi neobanklarning bozorga kirib kelishiga huquqiy asos bo‘ldi.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bevosita mamlakatdagi telekommunikatsiya infratuzilmasiga bog‘liq. KPMG auditorlik kompaniyasi tahlillariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2019-2023 yillar oralig‘ida 1 GB mobil internet narxi 3.27 dollardan 0.30 dollargacha (89% ga) arzonlashdi. Internet qamrovining kengayishi, ayniqsa 20-59 yoshdagi iqtisodiy faol aholi orasida smartfonlarning ommalashuvi raqamli banking uchun qulay zamin yaratdi.

Markaziy bankning 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, to‘lov tizimlarida jiddiy o‘shish kuzatilmoqda:

to‘lov terminallari orqali qabul qilingan to‘lovlar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshib, 326,7 trln so‘mni tashkil etdi;

elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 1,4 barobarga oshib, 16,6 mln taga yetdi;

QR-kodlar va NFC texnologiyalariga asoslangan to‘lovlar ulushi ortib bormoqda, bu esa naqd pulga bo‘lgan talabni kamaytirmoqda.

Quyidagi 2-jadvalda O‘zbekiston to‘lov tizimi infratuzilmasining o‘shish dinamikasi keltirilgan:

O‘zbekiston to‘lov tizimi infratuzilmasining rivojlanish ko‘rsatkichlari (2024-yil holatiga)<sup>2</sup>.

Ko‘rsatkich	Dinamika	Izoh
POS-terminallar orqali to‘lovlar	326,7 trln so‘m	Chakana savdoda naqd pulsiz hisob-kitoblar o‘smoqda.
Elektron pul tranzaksiyalari	16,6 mln dona	Kichik hajmdagi tezkor to‘lovlar uchun qulay vosita.
Internet va mobil banking	Aholi qamrovi kengaymoqda	”Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida o‘shish.
Infratuzilma integratsiyasi	Humo va Uzcard o‘zaro integratsiyasi	Bankomatlar va terminallarning barcha kartalarni qabul qilishi.

Davlat nafaqat regulyator, balki raqamli xizmatlarning asosiy buyurtmachisi sifatida ham ishtirok etmoqda. “Elektron hukumat” tizimi va bank ilovalari (masalan, MyGov xizmatlarining bank ilovalariga integratsiyasi) o‘rtasidagi hamkorlik fuqarolarga davlat xizmatlari uchun to‘lovlarni (jarima, boj, soliq) real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini bermog‘da. Bu esa banklarning tranzaksiyon daromadlarini oshirish bilan birga, iqtisodiyotdagi shaffoflikni ta‘minlamoqda.

O‘zbekiston bozorida raqamli transformatsiyaning eng yorqin namunasi – bu xalqaro tajribaga ega neobanklarning kirib kelishidir. Gruziyaning TBC Bank Group kompaniyasi sho‘ba korxonasi bo‘lgan TBC Bank Uzbekistan mamlakatdagi birinchi raqamli bank sifatida faoliyat boshladi. Jismoniy filiallarsiz, faqat mobil ilova orqali xizmat ko‘rsatish modeli dastlab skeptik qaralgan bo‘lsa-da, qisqa vaqt ichida o‘z samaradorligini isbotladi.

Agar TBC Bank sof raqamli bank modelini ifodalasa, Uzum guruhi bank va elektron tijorat integratsiyasiga asoslangan ekotizim modelini yaratdi. Uzum nafaqat bank (Uzum Bank), balki marketpleys (Uzum Market), muddatli to‘lov (Uzum Nasiya) va yetkazib berish xizmatlarini birlashtirgan super-ilovadir.

Uzum modeli “Ekotizim” nazariyasining amaldagi isbotidir. Bank xizmati bu yerda alohida mahsulot emas, balki tovar sotib olish jarayonining ko‘rinmas qismi (embedded finance) sifatida amalga oshiriladi.

Davlat ulushi mavjud yirik banklar – O‘zmilliybank, Sanoatqurilishbank, Asakabank ham raqamli poygadan chetda qolmayapti. Ular o‘zlarining ulkan mijozlar bazasi va kapitaliga tayanib, gibridd modelni tanlamoqdalar:

NBUning “Milliy”, SQBning “Joyda” ilovalari orqali masofaviy xizmatlar ko‘rsatilmoqda;

banklar o‘z ilovalari ichida sug‘urta, aviachiptalar va maishiy texnika sotib olish imkoniyatini yaratmoqdalar;

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzilgan



xalqaro konsultantlar (McKinsey, BCG) yordamida biznes jarayonlarini qayta qurish va “Underwriting” jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Shunga qaramay, an’anaviy banklarda eskirgan IT - tizimlar (“Legacy systems”) ya’ni eskirgan dasturlar, ilovalar, qurilmalar va byurokratik boshqaruv madaniyati raqamli transformatsiyani sekinlashtiruvchi omil bo’lib qolmoqda. Raqamlashtirish bank tizimiga ulkan imkoniyatlar bilan birga, jiddiy xatarlarni ham olib keldi. Ushbu xatarlarni boshqarish barqarorlikning garovidir.

Raqamli kreditlashning (onlayn mikroqarzarlar) ommalashuvi kredit portfeli sifatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Skoring modellarining nomukammalligi va aholining to’lov qobiliyatini to’g’ri baholamaslik holatlari kuzatilmoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko’ra, NPL (muammoli kreditlar) ulushi yil boshidagi 2,1 foizdan 6,2 foizgacha keskin oshgan davrlar kuzatildi.

Muammolarning asosiy sabablari:

1. Mobil ilova orqali “bir klik” bilan kredit olish imkoniyati aholida mas’uliyatsiz qarz olish ko’nikmasini shakllantirmoqda.

2. Aholining katta qismi kredit shartlari va foiz stavkalarini (ayniqsa, yillik 60-70% gacha bo’lgan mikroqarzlarda) to’liq tushunmaydi.

3. Skoring modellari rasmiy daromadga asoslanadi, biroq norasmiy sektordagi daromadlar va xarajatlarni aniq baholash qiyin.

Markaziy bank 2025-yilda makroprudensial standartlar doirasida qarzga xizmat ko’rsatishning daromadga nisbati – DSTI (Debt Service to Income) kabi yangi ko’rsatkichni kiritdi va kredit risklarini boshqarish bo’yicha yangi reglamentlarni joriy etdi. Bu kredit risklarini kamaytirish va fuqarolarning ortiqcha qarz yukidan himoya qilish uchun qilingan choradir.

Raqamli kanallar qancha ko’p bo’lsa, kiberjinoyatchilar uchun “hujum maydoni” shunchalik kengayadi. Ijtimoiy muhandislik (Social Engineering) – mijozlarni aldab, karta ma’lumotlarini olish holatlari ko’paymoqda. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, banklarning axborot xavfsizligi tizimlariga investitsiyalari yetarli darajada emas. Kiberxavfsizlik bo’yicha malakali mutaxassislar yetishmovchiligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Markaziy bank 2024-yilgi hisobotida axborot muhofazasi va kiberxavfsizlik bo’yicha nazoratni kuchaytirganini ta’kidlagan bo’lsa-da, bu boradagi xatarlar yuqoriligicha qolmoqda.

2026 yil 27 yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta’minlash bo’yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig’ilishida 2025 yil davomida Toshkent shahrining o’zida kiberjinoyatlar soni 16 mingdan oshgani va fuqarolarga 2 trillion so‘m moddiy zarar yetkazilganligi ta’kidlandi. Ushbu jinoyatlarni fosh etish 8 foizga ham bormagan.

Garchi internet arzonlashgan bo’lsa-da, hududlar o’rtasida raqamli tengsizlik mavjud. Qishloq joylarida internet tezligi va barqarorligi har doim ham talabga javob bermaydi, bu esa raqamli xizmatlardan foydalanishni cheklaydi. Bundan tashqari, “Raqamli bank” uchun an’anaviy iqtisodchilar emas, balki Data Scientist, Product Owner, UX/UI dizayner va IT-arxitektorlar kerak. O’zbekiston mehnat



bozorida ushbu mutaxassislar uchun keskin raqobat ketmoqda, bu esa banklarning operatsion xarajatlarini oshirmoqda.

O‘zbekiston bank tizimini raqamli transformatsiya qilish jarayoni ortga qaytmas tus oldi. Kelgusi 5-10 yilda quyidagi tendensiyalar ustuvor bo‘lishi kutilmoqda:

banklar o‘zlarida to‘plangan ma’lumotlardan samarali foydalanish bosqichiga o‘tadilar. Mijozga uning xulq-atvoridan kelib chiqib individual taklif berish (Next Best Action). Masalan, mijoz avtosalonida to‘lov qilganda, unga avtomatik ravishda sug‘urta taklif etish. Ijtimoiy tarmoqlar, kommunal to‘lovlar va geolokatsiya ma’lumotlari asosida alternativ kredit skoringini joriy etish. Bu NPL darajasini pasaytirishga xizmat qiladi;

markaziy bank tomonidan “Open banking” standartlarining joriy etilishi banklar va fintech-kompaniyalar o‘rtasida ma’lumot almashinuvini standartlashtiradi. Bu mijozga bir ilova orqali turli banklardagi hisoblarini boshqarish imkonini beradi va bozorda raqobatni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Markaziy bank raqamli banklar va fintech-kompaniyalar uchun litsenziyalash talablarini tabaqalashtirishi va “Tartibga solish qumdoni” (Regulatory Sandbox) doirasini kengaytirishi lozim. Bu innovatsiyalarni xavfsiz sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

2. Raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha milliy dasturni qabul qilish va uni ta’lim tizimiga integratsiya qilish zarur. “Raqamli moliyaviy savodxonlik” o‘quv moduli kabi tashabbuslarni kengaytirish kerak.

3. Barcha tijorat banklari uchun majburiy bo‘lgan yagona kiberxavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va muntazam audit o‘tkazish tizimini qat’iylashtirish.

4. Tijorat banklari o‘z strategiyalarida “bank mahsuloti” sotishdan voz kechib, mijozning ehtiyojlarini kompleks qondiruvchi hamkorlik tarmoqlarini (sug‘urta, rieltorlik, savdo) rivojlantirishlari shart.

5. Banking-as-a-Service (BaaS) va Embedded Finance – платформа/бренд ичида банк хизматлари (аккаунт, карта, кредитларни “white-label” шаклда жойлаштириш) orqali nodavlat kompaniyalar (do‘kon, marketpleys, soft) o‘z ilovalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bank mahsulotini qo‘shib, mijozni saqlash va yangi daromad olishadi.

6. “Buy-Now-Pay-Later” (BNPL) – bank bilan integratsiyalashgan bo‘lib to‘lashni (POS va onlaynda) rivojlantirish kredit reytingi bilan tez va UX darajasida yuqori konversiya beradi. Rivojlangan bozorlarda banklar BNPL mahsulotlarini ham ijobiy rag‘batlantirmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, raqamlashtirish O‘zbekiston bank tizimi uchun tanlov emas, balki zaruratdir. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanishni, balki bank madaniyati va biznesi falsafasining tubdan o‘zgarishini talab qiladi. Muvaffaqiyatli transformatsiya O‘zbekistonning mintaqaviy moliya xabiga aylanishi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

#### Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 –



2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020-yil 5-oktyabrdagi “”Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

3. Диденко И.С. (2012). Эволюция взглядов на понятие «банковская услуга». Инновационная экономика, № 11 (37), 253–257 с.

4. Гагиева О.Х. (2005). Организация и управление маркетинговой деятельностью коммерческого банка: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук (08.00.10). Владикавказ, 21 с.

5. Bekmurodov A.A. (2023). Tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish va informatsion texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari. Экономика и социум, № 6-1 (109), 87–89-б.

6. Sindarov F.Q. (2024). O‘zbekiston bank sektoridagi muammolar va kamchiliklar tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, № 11, 297–305-б.

7. Primova D.T. (2025). Bank xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), № 11, 2155–2165-б.

8. Markaziy Bank yillik hisoboti 2023.

9. Markaziy Bank yillik hisoboti 2024.

10. KPMG auditorlik kompaniyasining 2024 yil apreldagi “Fintex: O‘zbekistonda B2C to‘lovlar, POS orqali moliyalashtirish va BNPL” hisoboti.



**RESPUBLIKA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA  
INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI  
EKONOMETRIK TAHLIL QILISH**

**dots. Almuradov Abdulla**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-9278-832X

[almuradov.55@mail.ru](mailto:almuradov.55@mail.ru)

**Aziza Asrorova Oybekovna**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0001-0654-4282

[oybekovnaaziza2111@gmail.com](mailto:oybekovnaaziza2111@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning tutgan o'rnini va ulardan foydalanish samaradorligini ekonometrik modellar yordamida tahlil qilingan. Tadqiqotda Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi asosida investitsiyalarning YaIM o'sishiga ta'siri baholangan. Olingan natijalar investitsiya hajmi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib beradi. Yakunda respublika iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan kapitaldan samarali foydalanish va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, ekonometrik tahlil, YaIM, samaradorlik, Kobb-Duglas modeli, iqtisodiy o'sish, kapital.

**Kirish:** Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi globalashuv va keskin raqobat sharoitida har bir mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash bevosita investitsion jarayonlarning faolligi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlarning bosh maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi turmush darajasini oshirishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning nafaqat hajmini oshirish, balki ulardan foydalanishning yuqori samaradorligiga erishish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda oddiy statistik kuzatishlar yetarli emas. Zamonaviy sharoitda investitsiya oqimlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni ekonometrik modellashtirish orqali tahlil qilish, kelgusi davrlar uchun aniq prognozlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu esa davlatning investitsiya siyosatini ilmiy asosda shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism:** Tadqiqotda investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilish uchun O'zbekiston Respublikasining 2014-2024 yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Ekonometrik tahlil uchun ko'p omilli regressiya modeli tanlandi. Modelning tushuntiruvchi o'zgaruvchisi sifatida asosiy kapitalga



investitsiyalar ( $I$ ), natijaviy ko'rsatkich sifatida esa Yalpi ichki mahsulot hajmi ( $Y$ ) olindi. Hisob-kitoblar logarifmik shaklga keltirildi, bu esa olingan koeffitsientlarni elastiklik darajasi (foizdagi o'zgarish) sifatida talqin qilish imkonini beradi:

$$\ln(Y_t) = \beta_0 + \beta_1 \ln(I_t) + e_t$$

bu yerda:

$\beta_0$  – boshqa omillar ta'sirini ifodalovchi o'zgarimas miqdor;

$\beta_1$  – investitsiyalarning YaIMga nisbatan elastiklik koeffitsienti;

$e_t$  – tasodifiy xatoliklar.

O'zgaruvchilar	Koeffitsient	t-statistika	P-qiymati (Prob.)
C (O'zgarimas)	4.12	5.82	0.001
Investitsiyalar (ln I)	0.38	7.45	0.000

1. Regressiya koeffitsienti:  $\beta_1 = 0.38$  ga teng bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, O'zbekistonda investitsiyalar hajmining 1 birlikka ga ortishi, YaIMning o'rtacha 0.38 birlikka ga o'sishiga olib keladi.
2. Determinatsiya koeffitsienti:  $(R^2)=0.88$  ni tashkil etdi. Ya'ni, YaIM o'zgarishining 88% qismi aynan investitsiya omili bilan bog'liq, qolgan 12% esa boshqa omillar (texnologiya, mehnat unumdorligi va h.k.) hissasiga to'g'ri keladi.
3. F-statistika va P-qiymati: P-qiymati 0.05 dan kichik bo'lgani uchun model statistik jihatdan ishonchli deb topildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'siri yuqori, biroq kapital sig'imi yuqori bo'lgan sohalarda (energetika, metallurgiya) investitsiya qaytimi uzoqroq muddatni talab etmoqda. Shuningdek, xususiy investitsiyalarning multiplikator ta'siri davlat investitsiyalariga qaraganda 1.2 baravar yuqoriligi aniqlandi.

**Xulosa.** O'tkazilgan ekonometrik tahlillar va investitsion jarayonlarni o'rganish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi.

Bog'liqlik darajasi: Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjud ( $R^2=0.88$ ). Bu respublika iqtisodiyoti hali ham ko'p jihatdan ekstensiv omillar, ya'ni kapital oqimiga bog'liqligini ko'rsatadi. Samaradorlik koeffitsientiga ko'ra, investitsiyalarning 1% o'sishi YaIMning 0.38 % ga o'sishini ta'minlamoqda. Bu ko'rsatkichni oshirish uchun investitsiyalarning texnologik tarkibini yangilash talab etiladi. Tarkibiy nomutanosiblikda tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning asosiy qismi qazib oluvchi sanoatga yo'naltirilgan bo'lib, qayta ishlash va yuqori texnologiyali xizmatlar sohasida investitsiya qaytimi hali ham past darajada qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.



2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida"gi O‘RQ-598-sonli Qonuni, 2019-yil 25-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi. "O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" statistik to‘plami (yillik hisobotlar, 2015-2025). stat.uz.
4. Vahobov A.V., Jumayev N.H., Nurmurodov E.N. "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish". Darslik. – T.: "Sharq", 2021.
5. G‘ulomov S.S. "Iqtisodiy-matematik modellar va usullar". – T.: "Iqtisod-moliya", 2018.
6. Mustafakulov Sh.I. "Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot". Monografiya. – T.: "Baktria press", 2017.
7. Хазанович Э.С. "Инвестиции: Учебное пособие". – М.: КноРус, 2020.
8. Елисеева И.И. "Эконометрика: Учебник для магистров". – М.: Юрайт, 2023.
9. Абрамов С.И. "Управление инвестициями в основной капитал". – М.: Экзамен, 2019.
10. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. "Basic Econometrics". 6th Edition. McGraw-Hill Education, 2022.
11. Mankiw, N. G. "Principles of Economics". 9th Edition. Cengage Learning, 2021. (Investment and growth sections).
12. Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. "Economic Growth". MIT Press, 2004. (Cobb-Douglas models and capital accumulation).
13. World Bank Report. "Uzbekistan: Economic Update and Investment Policy Review". Washington D.C., 2024.
14. IMF Working Paper. "Determinants of Investment and Growth in Central Asia". International Monetary Fund, 2023.



## OLIY TA'LIM XIZMATLAR SIFATINI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY VOSITALARI

**Xasanova Yulduz**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.  
Turizm kafedrasasi assistenti.

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va baholashning ilmiy -uslubiy vositalari keltirilgan

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, inson zamonaviy yondashuvlar, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, ta'lim, ta'lim sifati, innovatsion jarayonlar

**Аннотация:** В данной статье представлены научно-методические инструменты повышения и оценки качества образования в образовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** качество образования, человек, современные подходы, технологизация образовательного процесса, образование, качество образования, инновационные процессы

**Abstract:** This article presents scientific and methodological tools for improving and assessing the quality of education in educational institutions.

**Key words:** quality of education, modern approaches to humanity, technologization of the educational process, education, quality of education, innovative processes

Bugungi kunda sodir bo'layotgan oliy ta'limda fan va texnologiyalar jahon tajribasidan kelib chiqib ta'lim sifatini oshirish bo'yicha zamonaviy oliy ta'lim xizmatlar sifatini baholashning ilmiy -uslubiy jihatdan asosan indekatorlar tizimi, ekspert baholash, so'rovnomalar reyting ko'rsatgichlari va xalqaro akkreditatsiya standartlari orqali amalga ashirildi bu vositalar ta'lim jarayoni, professor-o'qituvchilar salohiyati va infratuzilmani kompleks tahlil qilishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarurat etgan holda, oliy ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini keskin oshirish, sohada fan-texnika yutuqlarini o'quv jarayoniga joriy etishni talab etmoqda.

Ekspert baholash usuli mustaqil ekspertlar tomonidan ta'lim dasturlari o'quv-uslubiy materiallar va dars jarayonini tahlil qilish, satsialagik so'rovnomalar talaba o'qituvchi munosabati, ta'lim muhiti va xizmat ko'rsatish darajasini aniqlash uchun istemolchilar, ish beruvchilarni baholash bitiruvchilarning ko'nikmalari va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini aniqlash ta'lim dasturlarining talabga mostligini tekshirish. Reyting tizimi va akkredidatsiya OTMLar faoliyatini xalqaro (QS, Times Higher Education) va milliy reytinglar orqali baholash, shuningdek, ISO sifat menejmenti tizimlarini joriy etish. Kredit modul tizimi tahlili ta'lim jarayonining shaffovligi va talabalar tanlov erkinligini o'rganish ushbu vositalar o'zaro tizimli



ravshda oliy ta'lim muassalarining raqobtbardoshligini oshirishga va ta'lim sifatini boshqarishga yordam beradi.

Inson taraqqiyoti innovatsiyalarning global tavsifi bilan ta'minlanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimida qulay muhitni yaratish, innovatsion faoliyatning barcha turlarini hamda ularning tashkiliy tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish, ilm-fanni rivojlantirish, innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shiddatli islohotlar yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun ta'lim xizmatlarini takomillashtirish oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning ilmiy-uslubiy vositalari muhim vazifa hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va baholash masalasiga global miqyosda dolzarb muammo hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar va ko'plab mamlakatlar tomonidan belgilangan 2030 - yilgacha bo'lgan ta'lim konsepsiasida ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish masalasi eng muhim vazifalardan biri sifatida qayt etilgan. Oliy ta'lim sifatini baholash davlat va jamiyat oldidagi masuliyatining asosiy elementi sifatida qabul qilinmoqda. Bu yondoshuvlar kadrlar tayorlash tayorlash tizimining samaradorligini ta'minlash va uning uzluksiz takomillashtirilishi uchun muhimdir. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish oliy ta'lim muassalarining faoliyatini uyg'unlashtirishni talab qiladi.

Asosiy bilim va ko'nikmalarni ta'minlash. Yoshlarda boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirishda boshlang'ich, o'rta va oily ta'lim tizimi asosiy o'rin tutadi. Iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlari uchun zarur bo'lgan STEM fanlariga alohida e'tibor qaratilmoqda;

Mutaxassislarning amaliy tayyorgarligi. Universitetlar va kollejlarda talabalarga nafaqat nazariyani o'rganish, balki uni amaliyotda qo'llash imkonini beradigan amaliyotga yo'naltirilganda sturlarni faol ravishda joriy qilmoqda. Bu, ayniqsa, axborot texnologiyalari, muhandislik va biotexnologiya kabi sohalar uchun muhim;

O'quvjarayonini raqamlashtirish va texnologiyalashtirish. Ta'limda raqamli texnologiyalar, jumladan, onlayn kurslar, masofaviy o'qitish platformalari va virtual laboratoriyalardan foydalanish sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va o'quv jarayonini yanada moslashuvchan va samarali qiladi.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ushbu vositalardan samarali foydalanaoladigan yuqori malakali o'qituvchilarni ham talab qiladi. Shu bois o'qituvchilarning malakasini oshirishga sarmoya kiritish barcha darajadagi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishga aylanmoqda.

Ta'lim sifati bevosita o'qituvchilarning malakasiga bog'liq. Qayta tayyorlashda sturlari va xalqaro hamkorlik o'qituvchi va pedagoglarning zamonaviy o'qitish usullarini puxta egallashga yordam beradi.



Yoshlarni amaliy tadqiqotlar bilan shug'ullanishga, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishga rag'batlantirish maqsadida universitetlarda startap - inkubatorlar, ilmiy parklar tashkil etilmoqda.

- Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash: Talabalarning startaplari va tadqiqot loyihalari hukumat va xususiy sektor tomonidan qo'llab – quvvatlanishi kerak.

- Ijtimoiy harakatchanlikni yaxshilash: Sifatli ta'lim olish qashshoqlikni kamaytirish va fuqarolarning ijtimoiy imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim yuqori malakali inson kapitalini yaratishning poydevori bo'lib, u o'z navbatida O'zbekistonning ilmiy va innovatsion rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyot, texnologiya va xalqaro tajribaga yo'naltirilgan ta'lim xizmatlari mamlakatga fan va iqtisodiyotda yangi cho'qqilarni zabt etish imkonini beradi. Ta'limga sarmoya – bu kelajakka sarmoyadir.

Globalashuv sharoitida faqat ta'lim, fan va innovatsiyalarga maqsadli sarmoya kiritish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash, fuqarolar farovonligi darajasini oshirish va milliy o'zlikni mustahkamlash mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. Grooten, C.A. A service quality model and marketing implication/ Grooten, C.// European Journal of Marketing.– 1991.–Vol.18, 4
3. Managing Quality Service in Hospitality: How Organizations Achieve Excellence in the Guest Experience Robert C. Ford, Michael C. Sturman, Cherrill P. Heaton, Delmar, NY 12065-2919, USA. 2012.– 516 p. 207 bet
4. Алиев Ш.М. Рынок образовательных услуг и вопросы его регулирования : Дис... канд. экон. наук. - М.: РЭА, 2012.
5. Бурденко Е.В. Рынок образовательных услуг в трансформируемой экономике: Дис...канд. экон. наук. - М.: РЭА, 2014.
6. Варжина Н.В. Формирование системы управления качеством образовательных услуг. диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Екатеринбург 2007 г.-27 стр



## QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION MAHSULOT TAVSIFI VA XUSUSIYATLARI

Yo‘ldosheva So‘najon Zokir qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida innovatsion mahsulot tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida innovatsion mahsulot yaratishni asoslash yuzasidan xulosa keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье описываются характеристики и особенности инновационных продуктов в сельском хозяйстве. Также приводится заключение об обосновании создания инновационных продуктов в сельском хозяйстве.

**Abstract.** This article describes the characteristics and characteristics of innovative products in agriculture. It also provides a conclusion on the justification for creating innovative products in agriculture.

**Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi, mahsulot, innovatsion mahsulot, texnologiya.

**Ключевые слова.** Сельское хозяйство, продукт, инновационный продукт, технология.

**Key words.** Agriculture, product, innovative product, technology.

Qishloq xo‘jaligida innovatsion mahsulot yaratilishi innovatsiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Unga ko‘ra, tadqiqotlarda innovatsion faoliyat tushunchasiga “yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqarish yangi texnologiyalari negizida raqobatbardosh mahsulot (tovar) turlarini yaratish va tijoratlashtirishga qaratilgan jarayonlar majmuasidan iborat deb ta’rif berilgan. Qishloq xo‘jaligida mahsulot innovatsiyasi mavjud muammolarni hal qilish, mijozlar ehtiyojlarini qondirish yoki yangi bozorlarni ochish uchun yangi mahsulotlarni yaratish yoki mavjudlarini sezilarli darajada yaxshilash jarayonini aks ettiradi. Bu qishloq xo‘jaligida yangi qiymatni yaratish haqida emas, ya’ni iste’molchilar yoki biznes uchun mumkin bo‘lgan narsalarni qayta belgilaydigan yo‘llar bilan mazmunli qiymat berishni anglatadi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga ilmiy yutuqlar, innovatsion texnologiyalar va xo‘jalik yuritish uslublari, ilg‘or ishlab chiqarish tajribasi to‘g‘risida axborot berishni rivojlantirish va takomillashtirish - innovatsiyalarni tezlashtirishning amal qiluvchi mexanizmi hisoblanadi [1]. Shularga asosan, mahsulot innovatsiyasiga ta’rif bersak, o‘zgaruvchan bozor ehtiyojlariga moslashish uchun mahsulotlarni o‘zgartirish yoki ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan strategik jarayonni anglatadi [2]. Aniqroq qilib aytganda, qishloq xo‘jaligida mahsulot innovatsiyasi jarayoni yangi mahsulotlar yaratishda ijodiy jihatlarga e’tibor berib, sifatni yaxshilash, xususiyatlarni yaxshilash va mijozlarning o‘zgaruvchan afzalliklariga moslashishni hisobga oladi. Bu borada qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishga katta e’tibor qaratgan holda kompaniyalar mavjud mahsulotlarni




optimallashtirish, samaradorlikni rag‘batlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlar bazasini kengaytirishi mumkin.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligida mahsulot innovatsiyasi mahsulotning o‘z qiymatini oshirish orqali kompaniyaning bozordagi mavqeiga ta‘sir qilishi mumkin. Mahsulot innovatsiyalarini joriy etishda davom etish orqali kompaniyalar o‘z brend imidjini mustahkamlashlari, bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishlari va murakkablashib borayotgan iste‘molchilar ehtiyojlarini qondirishlari mumkin. Shu bois, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqish va yangilash bo‘yicha doimiy sa‘y-harakatlar shiddatli raqobat va doimiy o‘zgarib borayotgan bozor sharoitida kompaniya raqobatbardoshligini saqlab qolishning muhim unsuri bo‘lib hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida bozor tendentsiyalarini diqqat bilan kuzatib borish va mijozlar o‘zgaruvchan xohishlariga moslashish orqali kompaniyalar iste‘molchilar talablariga javob beradigan va qoniqishni oshiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishi mumkin. Shu orqali mijozlar sodiqligini kuchaytirib, uzoq muddatli biznes o‘rishini qo‘llab-quvvatlaydi. Mahsulot innovatsiyasi mahsulotning butun hayoti davomida hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Aynan, kashfiyot bosqichida eng yangi innovatsiyalar shakllanadi. Ular qondirilmagan ehtiyoj va imkoniyatlarni ochish uchun g‘oyalar va taxminlarni o‘rganadilar. Ushbu bosqich xavfli bo‘lsa ham mazmunli yutuqlarga olib keladigan dadil fikrlash va tajribalar o‘tkazish imkonini beradi. Masalan, Post-it Notesni olsak [3] 70-yillarda 3M kompaniyasi olimi Spenser Silver kuchli yopishtiruvchi mahsulot ishlab chiqarishga harakat qildi. Ammo, buning o‘rniga yengil yopishtiriladigan va shikastlanmasdan olib tashlanishi mumkin bo‘lgan yopishqoq mahsulot yaratdi. Dastlab muvaffaqiyatsiz deb topilgan jamoa o‘z maqsadini qayta ko‘rib chiqdi. Bu esa barcha davrlarning eng mashhur ofis jihozlarni yaratishga olib keldi. Ushbu muvaffaqiyat qiziquvchanlik, qat‘iyatlilik va mahsulot innovatsiyasining o‘ziga xos belgilaridan kelib chiqqan. Mazkur jarayon inqilobiy mahsulotlar bilan cheklanmaydi, u loyihani takomillashtirish yoki foydalanish qulayligini oshirish kabi aqlli usullarni o‘z ichiga oladi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida muvaffaqiyatli mahsulot innovatsiyasi ijodkorlik, bozor tadqiqotlari, mijozlar tushunchasi, texnologik tajriba va samarali loyihalarni boshqarishni talab qiladi. Bu borada qishloq xo‘jaligida biznesning barqaror o‘rishini yaratadigan mahsulot innovatsiya shakllarini ko‘rib chiqamiz (1-rasm).





## 1-rasm. Qishloq xo‘jaligida mahsulotning innovatsiya shakllari

Ushbu 1-rasmga asosan, qishloq xo‘jaligida mahsulot innovatsiya shakllari turli guruhlarga ajratiladi. Unga asosan, asl mahsulotning o‘zgarishlari yoki kengaytmalarini kiritish orqali mavjud mahsulot qatorini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Bu turli ta‘mlar, o‘lchamlar, ranglar yoki mijozlar segmentlariga yoki bozor muammolariga mos keladigan yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur rasm qishloq xo‘jaligida yangi mahsulotni ishlab chiqish qondirilmagan ehtiyojlarni qondiradigan yoki noyob imtiyozlarni taklif qiladigan mutlaqo yangi mahsulotlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Ya‘ni, bu mijozlar afzalliklarini o‘rganish, bozor tahlilini o‘tkazish va innovatsion mahsulotlarni loyihalashtirish va ishlab chiqarish uchun texnologik innovatsiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligida mahsulotni takomillashtirish ushbu turdagi innovatsiyalar yangi xususiyatlarni joriy etish, ish faoliyatini yaxshilash, samaradorlikni oshirish yoki mijozlar fikr-mulohazalarini hisobga olish orqali mavjud mahsulotlarni yaxshilashga qaratiladi. U raqobatbardoshlikni saqlab qolish va mijozlar o‘zgaruvchan talablarini qondirish uchun mahsulotga qo‘shimcha innovatsiyalarni kiritishga qaratilgan.

Xulosa shuki, qishloq xo‘jaligida mahsulot innovatsiyasi ijodkorlik, topqirlik, strategiya va amalga oshirishning uyg‘unligini aks ettiradi. Bu holat mavjud vaziyatga qarshi chiqish, kutilmagan yechimlarni qabul qilish va kichik yutuqlarni aniq natijalarga aylantirishni ko‘rsatadi. Jarayon innovatsiyasi esa mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berishda ishlatiladigan usullar, texnikalar yoki tizimlarni takomillashtirishni anglatadi. U qishloq xo‘jaligida operatsiyalarni soddalashtirish, hosildorlikni oshirish, chiqindilarni kamaytirish va umumiy samaradorlikni oshirishga qaratiladi. Jarayon innovatsiyasi mahsulot sifatiga, bozorga chiqish tezligiga va iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Xarajat innovatsiyasi esa qishloq xo‘jaligi mahsuloti sifati va funkcionalligini saqlab qolish yoki yaxshilash bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratiladi. U yanada samarali ishlab chiqarish jarayonlarini topish, arzonroq materiallarni sotib olish yoki xarajatlarni tejashga erishish uchun ta‘minot zanjiri operatsiyalarini optimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Biznes modeli innovatsiyasi mahsulotlarni yaratish, tarqatish, sotish yoki sotish usullarini qayta ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Bu yangi daromad modellarini qabul qilishni, yangi tarqatish kanallarini o‘rganishni yoki mijozlarning mahsulot bilan o‘zaro munosabatini o‘zgartirish uchun rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рустамова И.Б. Қишлоқ хўжалигида инновациялардан фойдаланиш даражасини ўрганиш масалалари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали, №4, июль-август, 2018. - 1-7 б.

2. Ahmedov A. (2024). Marketing innovatsiyasi-iqtisodiy rivojlanish sifat omilidir. // *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(7), 156–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/mpttp/article/view/36344>

3. <https://ideawake.com/post-it-notes-employee-idea-that-was-originally-mistake>



## МИНТАҚАДА САНОАТ ТАРМОҚЛАРИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШИНИ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

**Xodjaeva Feruza Komilovna**

Urganch shahar 22-son  
maktab o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Rivojlangan iqtisodiyatga esa har bir davlat milliy sanoat majmuasini rivojlantirish loyihasini qulab kувvatlashda innovatsion yuqori texnologik mahsulotlarni rivojlantirishga e'tibor qaratilishiga urfu berilgan. AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Finlandiyaning sanoat tarmoqini rivojlantirish b'uyicha tajribasiga birma-bir t'xtalangan. Xulosada, bizning mintaqada sanoatni innovatsion rivojlantirish b'uyicha xoriж tajribasi asosida tavsiyalar berilgan.

**Аннотация.** В поддержку проекта развития национального промышленного комплекса каждой страны с развитой экономикой особое внимание уделяется разработке инновационных высокотехнологичных продуктов. В статье поочередно рассмотрен опыт развития промышленной сети США, Германии, Японии, Южной Кореи и Финляндии. В заключение даны рекомендации, основанные на зарубежном опыте, по инновационному развитию промышленности в нашем регионе.

**Abstract.** In support of the national industrial complex development project of every country with a developed economy, emphasis is placed on the development of innovative high-tech products. The experience of developing the industrial network of the USA, Germany, Japan, South Korea and Finland was discussed one by one. In conclusion, recommendations are given based on foreign experience on the innovative development of industry in our region.

**Калит сўзлар.** Инновацион иqtisodiyat, экспорт, машина ва asbob uskunalar, yuqori texnologiyali sanoat tarmoqi, texnologik innovatsiya, modernizatsiya, fan-texnika, xoriж tajribasi.

**Ключевые слова.** Инновационная экономика, экспорт, машины и оборудование, высокотехнологичная промышленность, технологические инновации, модернизация, наука и технологии, зарубежный опыт.

**Key words.** Innovative economy, export, machinery and equipment, high-tech industry, technological innovation, modernization, science and technology, foreign experience.

AQSH ko'p yillar davomida sanoat va innovatsion taraqqiyotning jahondagi yetakchisi hisoblanib kelgan. 1970 yillarda mamlakatda yangi g'oya va texnologiyalarni tarqatishning axborot mexanizmi ishlab chiqarilgan. Bu faoliyat ilmiy-texnik axborot va federal laboratoriyalar konsorsiumining milliy markazi tomonidan amalga oshirilgan edi.

Unda barcha davlat muassasalarining ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha ma'lumotlar yig'ilgan. Ushbu markazga 300 dan ortiq federal ilmiy markazlar kirgan. 1980-yillarda kashfiyotlardan foydalanishning yangi sohalarini izlab topish hamda o'z ichki resurslari hisobiga xususiy kompaniyalar tomonidan



modifikatsiyalashni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha normativ huquqiy aktlar qabul qilindi.

1846-yilda Uilyam Barton Rodjers Bergan tomonidan “Universitet-ishlab chiqarish” uzoq muddatli munosabatlar g‘oyasi bu tadbirning asosiy markaziga aylandi. Natijada dunyo reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallagan 150 ta universitet AQSH milliy innovatsion tizimining asosiga aylandi. Braun, Garvard, Yel, Kolumbiya, Pensilvaniya, Priston universitetlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, Berkli, Stenford universitetlari, Massachusetts texnologik instituti, Viskon universiteti yirik ilmiy va ta‘lim markazlariga aylandi. “Uch spiral”ni AQSHda yaxshi rivojlanishida 1980-yilda Beya Doul (Bayh –Dole Act) akti deb nomlangan patent va savdo belgilari bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu akt bir hudud doirasida universitetlar, kichik biznes subyektlari va notijorat tashkilotlarini davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan kashfiyotlarni boshqarish bo‘yicha huquq va majburiyatlarni bo‘yniga olish imkoniyatini berdi.

Buning hisobiga universitetlarga quyidagi majburiyatlar yuklangan edi:

–grantlar hisobiga moliyalashtirilgan tadqiqotlar bo‘yicha amalga oshirilgan har qanday grantlar bo‘yicha davlatga ma‘lumot berib borish;

–kashfiyotning nomini aniqlash;

–kashfiyotlarni patentlashtirish;

–ishlanmalarni moliyalashtiruvchi tashkilotlar bo‘yicha ma‘lumot berish;

–texnologiyalarni tijoratlashirish bo‘yicha faol siyosat olib borish; –davlat tashkilotlaridan ruxsatsiz uchinchi shaxslarga kashfiyotlardan foydalanish huquqini bermaslik;

–kashfiyotlarni birinchi o‘rinda sanoat va kichik biznesga sotish.

AQSHning siyosatiga ko‘ra tadqiqotlarga qilingan xarajatlar hamda tadqiqot natijalarini tijoratlashuvidan olingan asosiy daromadlar bir necha universitetgagina to‘g‘ri keldi. Bu borada Kolumbiya universiteti birinchi o‘rinni egalladi. Ushbu universitetning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalardan etib universitetning sanoat bilan o‘zaro hamkorlik, sanoat hisobiga tadqiqotlarni moliyalashtirish va texnologiyalarni tijoratlashirish belgilab olindi.

Demak, “Uch spiral” ning muhim elementi sifatida mahalliy (hududiy) davlat organlarini universitetlar faoliyatini rivojlantirishda ham, innovatsion kompaniyalar uchun ijobiy muhitni yaratishda ham faol ishtirok etishini ajratib ko‘rsatish mumkin. AQSH tajribasidan shuni ko‘rish mumkinki, mintaqa sanoatini innovatsion rivojlanishi uchun davlatning qo‘llab quvvatlashi asnosida innovatsion mahsulotlarning tijoratlashuvi mexanizmini yaxshi yo‘lga qo‘yilgani hamda davlat tizimidan yetakchi texnologiyalarni xususiy sektorga ikkilamchi foydalanish va tarqatish uchun berilishiga alohida e‘tibor qaratilishi eng asosiy qadamlardan edi. Sanoat sohasini rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan siyosat Germaniyani nafaqat Yevropaning emas, balki butun bir dunyoda iqtisodiy taraqqiyotning yetakchisiga aylantirdi.

Ilmiy tadqiqot va innovatsion taraqqiyot Germaniyaning sanoat majmuasi uchun muhim vazifani amalga oshirdi. Nemis korxonalarini uchun yangi yoki



yaخشiroq ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalari, xom-ashyo materiallari va dasturiy ta'minotni keng doirada va tezda tadbiq etish asosiy maqsad etib belgilangan edi. 20 asrning 80 yillarida Germaniyada ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda asosiy e'tibor mintaqalardagi yirik sanoatga qaratildi. Bu yo'nalish uchun moliyalashtirish jami tadqiqot va taraqqiyot xarajatlarini 2/3 qismini tashkil etdi. 2006-yilda Germaniyada Innovatsion va texnologik taraqqiyot Strategiyasi qabul qilindi. Strategiyada milliy innovatsion sohasidagi xatti-harakatlarning asosiy yo'nalishlari hamda ularni amalga oshirish instrumentlari mintaqaviy nuqtayi nazardan aniq ifodalangan edi.

Agar AQSHda "uch spiral" shakllanishi asosi "ikki spiral" ya'ni "universitetbiznes" shaklida shakllangan bo'lsa, Yevropada bu "ikki spiral" asosida "davlat-biznes" g'oyasi yotadi. Germaniyada davlat tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishni qo'lga kiritgan muassasalar quyidagilarni amalga oshirishi majburiy edi:

–tadqiqotlarni amalda qo'llash mumkin bo'lgan iqtisodiy natijalargacha yetkazish;

–ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini patentlashtirish;

–investorlarni moliyaviy foyda olishda imkoniyatlarini kengaytirish; –loyiha natijalarini iqtisodiyotga ikki yil davomida tatbiq etish (aks holda unga bo'lgan huquqni yo'qotadi).

Germaniya hududlaridagi yirik korxonalarining sanoatni innovatsion modelini rivojlantirish yo'nalishdagi siyosati juda samarali bo'lgan. Agar yirik korxonalar innovatsion loyihani amalga oshirmoqchi bo'lsa, korxonalar o'z tarkibidan innovatsion guruhni ajratib oladi va kichik korxonalar tashkil etadi. Bu korxonalar murakkab ma'muriy to'siqlardan holi holda faoliyat ko'rsatadi, bu esa boshqaruv qarorlarini operativ holatda qabul qilish imkonini beradi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat quyidagi tarkibiy qismlarni ko'zda tutar edi:

–hududda aniq yo'naltirilgan klasterlarni shakllantirish: biotexnologiya, axborot texnologiyalari, kimyo, energiya va resurs tejash manbalarini qayta tiklash;

–kadrlar tayyorlash tizimini qayta shakllantirish, tanlangan yetakchi ilmiy fan taraqqiyoti yo'nalishlariga muvofiq mutaxassislar nomenklaturasini o'zgartirish;

–ilmiy-texnologik markazlarni shakllantirish, ushbu markazlar oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish uchun asbob uskunalar bilan ta'minlangan maydonlarni ajratish.

Hozirgi kunda Shimoliy Reyn-Vestfaliya mintaqasi Germaniyaning sanoat markazi hisoblanadi. Sanoat ilm-fan va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. 100 ta yirik korxonalardan 37 tasi Reyn va Rurda tashkil etilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi global bozor o'yinchilari hisoblanadi.

Ushbu mintaqalar nafaqat mintaqaviy yirik korporatsiyalar xududi bo'libgina qolmasdan, kichik va o'rta korxonalar to'plangan markazi ham hisoblanadi. Ushbu mintaqalar yerlari (Ennepe-Rur, Mettmann, Reklingsaxuzen, Reyn-Erft, Reyn-Zig, Reyn-Berg, Firzen, Vezel) asosan 4 sohaga ixtisoslashgan:

–biotexnologiya;



- energetika va atrof muhit;
- tibbiy tadqiqot;
- kimyo va yangi materiallar.

Ushbu mintaqada alohida e'tiborga molik jarayon intellektual mulk himoya mexanizmi mavjudligi hisoblanadi.

Yaponiyada sanoat tarmog'ini rivojlantirish siyosatida davlat alohida o'rin egalladi. Davlat sanoat tarkibiga chegaralangan holda ta'sir o'tkazib, quyidagi choralarni o'z ichiga oldi: qo'yilmalarni rag'batlantirish, xorijiy raqobatdan sanoatni himoya qilish, eksportni rag'batlantirish. Ushbu choralar faqatgina maxsus korxonalar yoki bir yo'nalishdagi korxonalar uchungina emas, balki sanoatni barcha tarmoqlari faoliyati uchun taalluqli hisoblangan. Uzoq vaqt davomida ular Yaponiya iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib keldi va sanoat guruhlariga yo'naltirilgan qo'yilmalarni shakllanishiga olib keldi. Bu choralar iste'molchi hisobiga bo'lsa ham sanoatni o'sish sur'atini tezlashishiga sabab bo'ldi.

Yapon sanoatining xarakterli jihati shundaki, bir mintaqa doirasida mahsulotni ishlab chiqaruvchi va xom ashyo yetkazib beruvchi korxonalar o'rtasida aloqalarning o'ta yaqinligidir. Yapon sanoat ishlab chiqarishini raqobat kurashida ustunlikka egaligiga asosiy sabablardan biri "subpudrat" tizimini mavjudligidir. Ushbu mamlakatda "subpudrat" tizimi murakkab iqtisodiy institutini tashkil etadi.

Ya'ni bir mintaqada joylashgan ancha past darajadagi mol yetkazib beruvchi korxonalar yirik mol yetkazib beruvchi korxonalar uchun subpudratchilikni bajaradi.

Yaponiya iqtisodiyotida sanoatlashtirish siyosatiga davlat faol ravishda aralashgani bilan alohida ajralib turadi. Yaponiyada xususiy va nodavlat sektori ustun mavqega ega. Yaponiya sanoat siyosatini amalga oshirishda quyidagi ishlarni amalga oshirdi:

–eksport siyosatiga javob beruvchi barcha hukumat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi eksport kengashi tuzildi;

–xorijiy davlatlarda yapon savdosini targ'ib qiluvchi reklama markazlari ochildi;

–ishlab chiqarish jarayonini o'zini garovga qo'yib, eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni eksport qilish jarayoni oldidan qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minladi;

–eksportdan tushgan daromad soliqlariga chegirmalar tizimi joriy qilindi.

Yaponiyada mintaqaviy jihatdan sanoatni innovatsion rivojlanishida hukumat tashabbusi bilan texnoparklarning shakllanishi muhim qadamlardan biri edi. 1980-yillarda yapon hukumati texnopolislarni tashkil etish bo'yicha keng qamrovli dasturlarni amalga oshirishga kirishdi. Ishlab chiqilgan "Texnopolis" dasturiga muvofiq, texnopolis nomini olgan 20 ta ilmiy texnik zonalar alohida iqtisodiy rivojlanishda orqada qolgan tumanlarda tashkil etildi.

Yuqori texnologiyali tarmoqlarda faoliyat yurituvchi korxonalarda birinchi yili asosiy vositalarga 30%, bino va inshootlarni 15%ga amortizatsiya hisoblashga ruxsat berildi. Davlat laboratoriya va kichik firmalarning qo'shma olib borgan ilmiy tadqiqotlarini 1/3 qismini to'lab berdi. Texnopolislar infratuzilmasini tashkil etish



uchun xususiy kapital faol ravishda jalb etildi, ushbu kapital ta'lim muassasalaridagi ilm va ishlab chiqarishni faol birlashtirish manbai bo'ldi.

Janubiy Koreya hududlarida "chebollar" - yirik sanoat birlashmalarini yaratilishiga davlatning to'g'ridanto'g'ri yordam ko'rsatilishi, davlatning imtiyozli kreditlarini hamda chet eldan asbob uskunalar olib kelish uchun valyuta mablag'larini ajratilishi innovatsion rivojlanishni keng ko'lamda amalga oshirilishiga turtki bo'ldi.

Janubiy Koreya sanoatni innovatsion rivojlantirish jarayonida biotexnologik sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Finlyandiya 1990-yillarda asosiy e'tiborni sanoatni innovatsion rivojlantirishga qaratdi. Shuningdek, cheklangan ilmiy texnik resurslarni taqsimlashda milliy ustunliklarni aniqlash zaruriyatini belgilab oldi. So'nggi 20 yilda iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti davlatlariga nisbatan Finlyandiya ilmiy tadqiqot ishlanmalariga investitsiyalar hajmi 2 barobar ko'proq oshdi.

Bu bilan o'rtacha yillik o'sish 10%ni tashkil etdi. Bunday taraqqiyot erkin bozor va faol raqobatning mavjudligi sababli amalga oshdi. Bundan tashqari Finlyandiya axborot va kommunikatsion texnologiyalar bo'yicha hududlarda klasterlarni shakllanishi ilmiy va ta'lim tizimiga o'z hissasini qo'shdi.

Ushbu klasterlar Finlyandiya innovatsion tizimining markaziy elementi hisoblandi, hamda o'z tarkibiga bir mintaqada joylashgan yirik va mayda kompaniyalarni oldi. Finlyandiyaning alohida jihati yuqori texnologik mahsulotlarga ichki talabning yuqoriligi bo'lgan. Iqtisodiyotda yuqori texnologik tarmoq hissasini o'sishining alohida jihati bo'lib xorijiy investitsiya va texnologiyalarni past hissa hamda kompaniyalarining ixtisoslashuvini qoida bo'yicha mamlakat ichida ishlab chiqarilgan texnologiyalar tashkil etganligi bo'lgan. Bu bilan Finlyandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlarning shakllanishi hamda ilmiy tadqiqot ishlariga yuqori darajadagi xarajatlar yuqori texnologik tarmoqlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Bu esa mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishining muhim jihati hisoblandi.

Xulosa. Yuqoridagi ko'pgina davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri klasterlashdir. Ammo klasterlarni tashkil etish, rivojlantirish va rag'batlantirishning yagona mexanizmi mavjud emasdir. Ushbu yondashuvga asoslangan holda mintaqa iqtisodiyotini modernizatsiyalash uchun zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda sanoat komplekslari vakillarini tashabbuslarini qo'llab quvvatlashni ta'minlovchi klaster siyosatining asosli dasturini ishlab chiqish lozim.

Klasterlarni rivojlanishini qo'llab quvvatlashda amalga oshishi mumkin bo'lgan quyidagi yo'nalishlarni belgilash mumkin: Klasterlarni shakllanishi-bu yetarli darajada uzoq jarayon (Silikon vodiysi XX asrning 40 yillarida klaster sifatida shakllanishni boshlagan) bo'lib, sanoat komplekslari, hukumat va boshqaruv organlari hamda kichik va o'rta biznes vakillari tomonidan juda ko'p harakatni talab etadi. Klasterlarni shakllanishining xalqaro tajribasini ko'rsatishicha (masalan, avtomobil klasterlarini shakllanishida Xitoy tajribasi), avvalo, mintaqada bitta yoki bir nechta yirik korxonalaridan iborat sanoat zonalarini tashkil etish lozim. Bu



yordamchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish uchun muayyan asos yaratadi. Bu jarayonning muhim nuqtasi bo'lib, yuqori malakali kadrlarni jalb qilish hisobiga kadrlar salohiyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu bilan mahsulotni to'liq ishlab chiqarish sikli – yangi mahsulotni ishlab chiqarishdan uni bozorga sotish jarayonigacha bo'lgan davrni boshqarish mumkin bo'ladi. Yaratilgan shart-sharoitlar mintaqaga yirik va o'rta biznesni jalb etadi, yangi kompaniyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni faollashtiradi, kichik biznesni rivojlantiradi. Sanoatxo'jalik kompleksini tashkil etgandan so'ng klaster tizimini tashkil etishning samarali dasturini ishlab chiqilishi mintaqada sanoat faoliyatini faollashtirgan holda sanoat kompleksi faoliyatini samarasini oshirishga olib keladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, sanoatning innovatsion rivojlanishini asosi bo'lib davlat tomonidan rag'batlantirishning turli vositalari xizmat qildi. Birinchidan, sanoat majmuasini innovatsion jarayonini faollashtirish davlat tomonidan kuchli qo'llab quvvatlash natijasida bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov A.M., Gulomova G.P., Ahmediyeva A.T., Alimova N.R. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish. Monografiya.-T.: "Iqtisodiyot", 2013.-436 b. Promyshlennaya politika i podderjka eksporta v SSHA [Elektronnyy resurs]. – Rejim dostupa: <http://www.nc cg.ru/site.xp/049054057055124.html>
2. Гертц, Р. Инновационная политика предполагает инновационное предпринимательство [Текст] / Р. Гертц // «Элемент». – 2010. – № 2. – С. 62-71.
3. Особенности функционирования высокотехнологичных кластеров в Китае и Японии А.А. Лавров [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://sun.tsu.ru/mminfo/000063105/329/image/329-182.pdf>
4. Государственная поддержка инноваций в Финляндии [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.nc cg.ru /site.xp/04905 4057052 124.html>
5. Bergman, E.M. National industry cluster emplates: a framework for applied regional cluster analysis [Text] / E.M. Bergman, E.J. Feser // Regional Studies. – 2000. – № 34 (1). – P. 1-19.
6. Batirova, N. S., & Tohirov, S. (2019). Importance of foreign economic relations in innovative development of the region's industry. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 145-149).
7. Batirova, N. S. (2018). Features of the development of the tashkent region in an innovative economy. European Journal of Humanities and Social Sciences, (6), 159-162.
8. Batirova, N. (2018). The innovative development of the industry in tashkent region. The Light of Islam, 2018(4), 51-57.
9. Batirova, N. (2019). Features of industrial development of the tashkent region. The Light of Islam, 2019(4), 40.



## SOLIQ IMTIYOZLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI

**Abdurahmonov Baxriddin Abdumannon o'g'li**

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [bahriddin@tersu.uz](mailto:bahriddin@tersu.uz)

ORCID ID: [0009-0003-4943-9954](https://orcid.org/0009-0003-4943-9954)

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning xalqaro tajribasi, uslubiy yondashuvlari va zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Unda “soliq xarajatlari” konsepsiyasi, rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya) tomonidan qo'llaniladigan baholash modellari, shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) va Jahon bankining bu boradagi tavsiyalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, 2024-2025-yillarda global soliq tizimiga ta'sir qilayotgan yangi omillar – global minimal soliq va sun'iy intellektning o'rni yoritilgan. Tadqiqot yakunida O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq imtiyozlari, soliq xarajatlari, etalon soliq tizimi, samaradorlik auditi, global minimal soliq, sun'iy intellekt, xarajatlarga asoslangan imtiyozlar.

Global iqtisodiy o'zgarishlar va davlat byudjetiga bo'lgan bosim ortib borayotgan sharoitda soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash masalasi milliy hukumatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro amaliyotda soliq imtiyozlari ko'pincha “soliq xarajatlari” sifatida tasniflanadi, chunki ular mohiyatan davlatning aniq ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish yo'lida kafolatlangan daromadlardan voz kechishini anglatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, tahlil qilingan mamlakatlarda soliq xarajatlari yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'rtacha 4 foizini, ayrim yurisdiksiyalarda esa 10 foizdan ortig'ini tashkil etadi.

Samaradorlikni baholashning birinchi bosqichi soliq imtiyozini identifikatsiya qilishdir. Bu jarayon “etalon” yoki bazaviy soliq tizimini belgilashga asoslanadi. Etalon tizim - bu hech qanday imtiyoz va maxsus rejimlarsiz soliqqa tortish tuzilmasidir. Ma'lum sektorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ushbu normadan chetga chiqish soliq xarajatlari deb hisoblanadi.

Etalon tizimni shakllantirishda ikkita asosiy yondashuv mavjud:

1. Soliq siyosatining nazariy tamoyillariga (adolat, neytrallik) tayanilishi;
2. Amaldagi qonunchilikning umumiy qoidalarini asos sifatida qabul qilinishi va istisnolarni imtiyoz sifatida ko'rilishi.

IHTT, Xalqaro valyuta fondi (XVF) va Jahon banki kabi tashkilotlar soliq imtiyozlarini xuddi to'g'ridan-to'g'ri byudjet xarajatlari kabi qat'iy nazorat qilishni tavsiya etadi. IHTT har qanday davlat aralashuvini, shu jumladan soliq imtiyozlarini tahlil qilish uchun oltita asosiy mezonlardan foydalanadi:



**ИТТning soliq imtiyozlarini baholash mezonlari<sup>3</sup>.**

<b>Mezon</b>	<b>Mazmuni</b>
Dolzarblik	Imtiyoz joriy ehtiyojlar va ustuvorliklarga mos keladimi?
Muvofiqlik	Boshqa siyosiy choralar (masalan, ekologik maqsadlar) bilan zid emasmi?
Natijadorlik	Qo‘yilgan maqsadlarga (masalan, investitsiya o‘sishi) erishildimi?
Tejamkorlik	Resurslar natijaga erishish uchun maqbul sarflandimi?
Ta’sir	Uzoq muddatli to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sirlar qanday?
Barqarorlik	Chora bekor qilingandan keyin ham ijobiy natijalar saqlanib qoladimi?

AQShda shtatlar darajasida imtiyozlarni baholashning mukammal tizimlari shakllangan. Vashington shtatida 2006-yilda joriy etilgan 10 yillik baholash sikli eng ilg‘or namunadir. Jarayon siyosiy ta’sirdan xoli bo‘lib, unda uchta mustaqil tomon ishtirok etadi: professional auditorlar, ekspertlar va fuqarolik komissiyasi.

Massachusetts shtatining 2012-yildagi auditi shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab biznes imtiyozlarida ularni “tugatish muddati” va hisobot berish talablari mavjud bo‘lmagan. Bu esa qonun chiqaruvchilarga imtiyozning dolzarbligini davriy ravishda tekshirish imkonini bermagan.

Buyuk Britaniyada OTS (Soliq tizimini soddalashtirish boshqarmasi) 1042 ta amaldagi imtiyozlarni tahlil qilib, ularni beshta mezon bo‘yicha baholadi. Natijada 47 ta imtiyoz samarasizligi yoki ma’muriy xarajatlar yuqoriligi sababli bekor qilishga tavsiya etildi.

Germaniyada FiFo Köln (Kyoln universitetidagi Davlat moliyasini tadqiq qilish instituti) va ZEW (Yevropa iqtisodiy tadqiqotlar markazi) institutlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda imtiyozlar vizual tarzda quyidagicha ranglarga bo‘lindi:

yashil – imtiyoz samarali, saqlab qolish tavsiya etiladi;

sariq – jiddiy qayta ko‘rib chiqish talab etiladi;

qizil – bekor qilinishi kerak, chunki u natija bermayapti yoki salbiy ta’sirlari ko‘p. Tahlil qilingan xarajatlarning faqat 15.5 foizi “yashil” maqomiga ega bo‘lgan.

Fransiyada Henri Guillaume qo‘mitasi 470 ta soliq xarajatlarini baholadi. Har bir imtiyoz natijadorligi 0 dan 3 gacha bo‘lgan ballar bilan baholandi:

0 ball – natija yo‘q (maqsadga erishilmagan).

1-3 ball – turli darajadagi samaradorlik darajalari. Tahlil natijasida imtiyozlarning 37 foizi “0” ball oldi, bu esa ularning samarasizligini ko‘rsatdi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya) soliq imtiyozlarini baholash tizimlari o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘xshashliklarni quyidagi 2-jadval hamda tahlil orqali ko‘rish mumkin:

<sup>3</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.



2-jadval.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning baholash tizimlari qiyosiy tahlili<sup>4</sup>.

Davlat	Baholash organi	Asosiy uslubiyat	Tasniflash tizimi	Sikli
AQSH (Vashington shtati)	JLARC (Mustaqil auditorlar) va Fuqarolik komissiyasi	GAO standartlari asosida audit	“Saqlash”, “O‘zgartirish” yoki “Bekor qilish”	10 yillik qat’iy grafik
Buyuk Britaniya	OTS (Soliqni soddalashtirish boshqarmasi)	5 ta strategik savol (filtr)	“Soddalashtirish”, “Saqlash” yoki “Bekor qilish”	Davriy (ehtiyojga qarab)
Germaniya	Fifo Köln, ZEW (Mustaqil institutlar)	Byudjet subvensiyalari tahlili sxemasi	“Svetofor” (yashil, sariq, qizil)	Tizimli (20 ta yirik imtiyoz)
Fransiya	Henri Guillaume qo‘mitasi	Excel-monitoring va 6 bosqichli filtr	0 dan 3 gacha balli shkala	Masshtabli (470+ imtiyoz)

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari va tahlil natijalariga ko‘ra:

1. AQSHda (Vashington modeli) baholash jarayoniga fuqarolik jamiyati va mustaqil auditorlarning jalb qilinishi siyosiy xolislikni ta’minlaydi. Germaniya va Fransiyada esa jarayon ko‘proq ilmiy-tadqiqot institutlari va hukumat komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi;

2. Buyuk Britaniya tizimi imtiyozlarning “ma’muriy murakkabligi” va soliq to‘lovchilarning “xabardorligi”ga katta urg‘u beradi. Germaniya va Fransiyada esa asosiy e’tibor imtiyozning “iqtisodiy samaradorligi” va “byudjetga ta’siri”ga qaratilgan;

3. Massachusetts (AQSH) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, imtiyozlarda “tugatish muddati” bo‘lmasligi ularning samaradorligini pasaytiradi. Germaniya va Fransiya ushbu muammoni imtiyozlarni ballash va “qizil” yoki “0 ball” orqali bekor qilishga tavsiya etish bilan hal qiladi;

4. Barcha o‘rganilgan davlatlarda soliq imtiyozlari “soliq xarajatlari” sifatida ko‘riladi va ular byudjet jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ushbu qiyosiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, samarali tizim uchun nafaqat raqamli ko‘rsatkichlar, balki mustaqil baholash instituti va imtiyozlarning aniq tugatish muddati zarurdir.

2024-yilda jahon soliq tizimi ikki muhim omil ta’sirida o‘zgarmoqda:

1. 15 foizlik minimal stavka joriy etilishi natijasida foydaga asoslangan an’anaviy imtiyozlar jozibadorligini yo‘qotmoqda. Ekspertlar xarajatlarga

<sup>4</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.



asoslangan imtiyozlarga, masalan, axborot texnologiyalari va innovatsiyalar uchun soliq kreditlariga o'tishni tavsiya qilmoqda;

2. 2023-yilga kelib soliq ma'murlari tomonidan sun'iy intellektdan foydalanish ko'rsatkichi 69 foiz 2016-yildagi ushbu ko'rsatkich bilan taqqoslaganda 60 foizga o'sgan. Bu real vaqt rejimida imtiyozlar samaradorligini va "soliq bo'shliqlari"ni tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbekistonda 2024-yilning birinchi yarmida soliq imtiyozlari summasi qariyb 39 trln so'mni tashkil etdi. Biroq, kichik va o'rta biznesning eksport salohiyati atiga 27.4% ni tashkil etib pastligicha qolmoqda. IHTTning "Yo'l xaritasi"da O'zbekiston uchun quyidagi tavsiyalar keltirilgan:

barcha imtiyozlarning yagona reestrini yaratish;  
soliq xarajatlari to'g'risidagi hisobotlarni har yili e'lon qilish;  
soliqdan to'liq ozod qilish o'rniga investitsiya chegirmalari mexanizmini qo'llash;

bojxona va soliq organlari ma'lumotlarini integratsiya qilish orqali monitoringni kuchaytirish.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash shunchaki statistik tahlil emas, balki davlat resurslarini boshqarishning muhim vositasidir. Muvaffaqiyatli xalqaro modellar shaffoflik, mustaqil audit va davriy qayta ko'rib chiqishga tayanadi.

Tahlillar asosida O'zbekiston soliq tizimi uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. IHTT tavsiyasiga ko'ra, barcha amaldagi imtiyozlarning muddatlari va mezonlari ko'rsatilgan to'liq inventarizatsiyasini o'tkazish hamda investorlar uchun aniq qo'llanmalar yaratish;

2. Har yili davlat byudjeti bilan birga soliq imtiyozlari natijasida boy berilgan daromadlar va ulardan kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy foyda haqida ochiq hisobot e'lon qilish;

3. Har bir yangi soliq imtiyozi uchun 3-5 yillik amal qilish muddatini belgilash va bu muddat yakunida samaradorlik tahlili ijobiy bo'lsagina uni uzaytirish tartibini joriy etish;

4. Global minimal soliq talablari doirasida, korxonalarni shunchaki soliqdan ozod qilish o'rniga, ularning ilmiy-tadqiqot va asosiy vositalarga qilgan investitsiyalariga qarab chegirmalar berish;

5. Soliq, bojxona va statistika idoralari ma'lumotlarini integratsiya qilish orqali imtiyoz oluvchi subyektlarning haqiqiy iqtisodiy holatini va ish o'rinlari yaratilishidagi ishtiroklarini sun'iy intellekt yordamida monitoring qilish;

6. Agar imtiyoz olgan tadbirkorlik subyekti belgilangan majburiyatlarni (eksport hajmi, ish o'rni va h.k.) bajarmasa, berilgan imtiyoz summalarini byudjetga qaytarib to'lash mexanizmini mustahkamlash.

Soliq imtiyozlari faqatgina iqtisodiyotning strategik tarmoqlariga va aniq natijalarga yo'naltirilgan taqdirdagina davlat taraqqiyotiga xizmat qiladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2024-yil birinchi yarim yilligidagi ijrosi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 05.09.2024-yildagi 4805-IV-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari” to‘g‘risidagi ochiq ma’lumotlari. PRESS-RELIZ. 24.10.2025-y.
3. OECD. (2010). Tax Expenditures in OECD Countries. Paris: OECD Publishing.
4. OECD. (2023). Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies.
5. OECD. Investment Policy Reviews: Uzbekistan.
6. World Bank & IMF. (2015). Options for Low Income Countries’ Effective and Efficient Use of Tax Incentives for Investment. Platform for Collaboration on Tax.
7. Global Minimal Tax (Pillar Two). OECD/G20 Base Erosion and Profit Shifting (BEPS) Project.
8. Joint Legislative Audit and Review Committee (JLARC). (2006-2024). Tax Preference Performance Reviews. Washington State, USA.
9. Office of Tax Simplification (OTS). (2011-2022). Review of Tax Reliefs. United Kingdom.
10. Guillaume, H. (2011). Rapport du Comité d’évaluation des dépenses fiscales et des niches sociales. Paris: Inspection générale des finances.
11. FiFo Köln & ZEW (Leibniz Centre for European Economic Research). Evaluations of Tax Expenditures in Germany.
12. Massachusetts Tax Expenditure Review Commission. (2012). Report on the Effectiveness of Tax Expenditures.



## КО‘ЧМАС МУЛК ОBYEКТЛАРИНИНГ БОЗОР ҚИЙМАТИНИ БАНОЛАШ ОРҚАЛИ КО‘ЧМАС МУЛК БОЗОРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

**Xushvaqtoy Jasur Shuhrat o‘g‘li**

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [xjasur@tersu.uz](mailto:xjasur@tersu.uz)

ORCID ID: [0009-0009-0666-1313](https://orcid.org/0009-0009-0666-1313)

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda ko‘chmas mulk obyektlarining bozor qiymatini aniqlash orqali ko‘chmas mulk bozori samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Ishda inventarizatsiya qiymatidan kadastr (bozor) qiymatiga asoslangan –advalor soliqqa tortish tizimiga o‘tishning iqtisodiy mohiyati, afzalliklari va hududiy moliyaviy salohiyatga ta’siri ochib berilgan. Ommaviy baholash usullarining nazariy asoslari, individual va ommaviy baholash yondashuvlari farqlari hamda baholashda daromad, qiyosiy va xarajat yondashuvlarini qo‘llash xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ommaviy baholash modellarini takomillashtirishda statistik, ekonometrik va sun’iy intellekt usullaridan foydalanish zarurligi asoslangan. Natijada bozor qiymatiga yaqin kadastr baholash tizimi soliq bazasining adolatliligini ta’minlashi, byudjet tushumlarini oshirishi va hududiy rivojlanishni rag‘batlantirishi xulosasi chiqarilgan.

**Kalit so‘zlar:** ko‘chmas mulk bozori, bozor qiymati, kadastr qiymati, ommaviy baholash, advalor soliqqa tortish, soliq bazasi, hududiy rivojlanish, baholash yondashuvlari, ekonometrik modellashtirish, sun’iy intellekt, soliq salohiyati.

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida barcha turdagi resurslardan, ayniqsa, ko‘chmas mulk va yer resurslaridan oqilona hamda samarali foydalanish masalasi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ko‘chmas mulk bozori milliy iqtisodiyotning fundamental sektori bo‘lib, u nafaqat aholining yashash sharoitlarini belgilaydi, balki hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi, moliyaviy barqarorligi va ijtimoiy farovonligining asosiy indikatori vazifasini ham o‘taydi. Ushbu bozorning samaradorligi esa, o‘z navbatida, undagi aktivlarning qiymati qanchalik to‘g‘ri, shaffof va bozor tamoyillariga mos ravishda baholanishiga bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy iqtisodiyotda resurslarning cheklanganligi sharoitida ulardan maksimal darajada samarali foydalanish talabi kun tartibiga chiqmoqda. Ko‘chmas mulk, xususan, turar-joy fondi, jamiyatning ulkan moddiy boyligi bo‘lib, uning iqtisodiy muomaladagi ishtiroki davlatning fiskal siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu boylıkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishda soliq tizimi kuchli iqtisodiy dastak hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘chmas mulki obyektlarining bozor qiymatini aniq belgilash jarayoni yer va unda joylashgan inshootlardan oqilona foydalanish



shart-sharoitlarini yaratishning birlamchi omilidir. Bu borada A.Pylayeva o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek: “Ko'chmas mulki bozor qiymatining aniq belgilanishi jarayonlarni boshlashi va yer hamda unda joylashgan ko'chmas mulk obyektlaridan oqilona foydalanish shart-sharoitlarini yaratishi lozim. Bunga soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatiga mulkiy soliqlarning samarali ta'sirini ta'minlash orqali erishiladi va soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi”.

Bu fikrning mohiyati shundaki, soliq yuki ko'chmas mulkning real bozor qiymatiga asoslanganda, mulkdor o'z mulkidan samarasiz foydalanishdan manfaatdor bo'lmaydi. Masalan, shahar markazida joylashgan qimmatbaho yer uchastkasida past samarali inshootning mavjudligi yuqori soliq to'lovlarini keltirib chiqaradi, bu esa mulkdorni ushbu yerni yanada samaraliroq foydalanishga – qayta qurishga yoki sotishga undaydi. Natijada, soliqning bozor qiymati bilan o'zaro bog'liqligi bozor mexanizmlarini faollashtiradi va resurslarning eng samarali foydalanuvchilar qo'liga o'tishini ta'minlaydi.

Bu jarayon hududlarning moliyaviy salohiyatini ro'yobga chiqarishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Soliqqa tortishdan foydalanish orqali mintaqalarning moliyaviy potensialini amalga oshirish vazifasi doirasida ko'chmas mulk obyektlarining bozor qiymatini ishonchli baholash jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga o'xshash tarzda, O'zbekistonda ham soliq islohoti amalga oshirilmoqda, uning asosiy yo'nalishlaridan biri ko'chmas mulkni soliqqa tortishda advalor tizimiga o'tish hisoblanadi. Ushbu tizimga o'tishning zarurati avvalgi tizimning samarasizligi va zamonaviy bozor talablariga javob bermasligi bilan izohlanadi.

Yaqin vaqtgacha soliqqa tortish maqsadlari uchun davlat tomonidan belgilanadigan barcha ko'chmas mulk obyektlarining qiymati balans yoki inventarizatsiya qiymati sifatida aniqlanar edi. Bu qiymat asosan quyidagi usullar bilan baholangan:

- qurilish xarajatlari asosida;
- sotib olish narxi asosida.

Eng muhim jihati shundaki, bu qiymat keyinchalik jiddiy o'zgarishlarga uchramagan va bozor konyunkturasiidagi o'zgarishlarni aks ettirmagan. Ko'chmas mulk obyektlarining real bozor salohiyatini ochib berishga asosiy to'sqinlik qiluvchi omil aynan eskirgan qiymat ko'rsatkichlaridan foydalanish bo'lgan. Bu holat quyidagi salbiy oqibatlariga olib kelgan:

real bozor narxlari oshib borishiga qaramay, soliq bazasi sun'iy ravishda past darajada qolgan, bu esa mahalliy byudjetlarga tushumlarni cheklagan;

bozor qiymati turlicha bo'lgan (masalan, nufuzli va chekka hududlardagi) obyektlarning inventarizatsiya qiymati bir xil bo'lishi mumkin edi, bu esa soliq yukining notekis taqsimlanishiga olib kelgan.

Huquqiy nuqtayi nazardan, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash mexanizmi O'zbekiston soliq tizimi shakllanishining boshlang'ich davrida yaratilgan va uzoq vaqt davomida prinsipial o'zgarishlarga uchramagan. Inventarizatsiya qiymati tiklash qiymati ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblangan va



me'yoriy xizmat muddatiga bog'liq bo'lgan jismoniy eskirishni chegirib tashlagan holda joriy narxlarga keltirilgan tiklash qiymati sifatida hisoblangan.

Qiymatni qayta baholash narxlar o'sishi indekslarini qo'llash va jismoniy eskirishni qayta hisoblashdan iborat bo'lgan. Biroq, bu indekslar O'zbekistonda qonun bilan tasdiqlangan va butun viloyat bo'yicha umumiy belgilangan. Bu esa jiddiy nomutanosibliklarni keltirib chiqargan:

real bozor narxi indeksatsiyadan tezroq o'sgani sababli ko'chmas mulk qiymatining asossiz pasayishiga;

bozor narxi o'smagan yoki tushgan holda indeksatsiya qo'llanilgani sababli qiymatning asossiz oshishiga.

O'zbekistonda 2018-yildan boshlab ko'chmas mulkni kadastr qiymatiga asoslangan soliqqa tortish tizimiga o'tilish boshlandi<sup>5</sup> hamda 2020-yildan ko'chmas mulk obyekti bo'yicha soliq bazasini bosqichma-bosqich bozor qiymatiga yaqin bo'lgan kadastr qiymatiga o'tkazish belgilandi<sup>6</sup>. Ushbu o'zgarish soliq islohotining hal qiluvchi jihati hisoblanadi, chunki u soliqqa tortish tizimini bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtiradi. Soliq yig'ish tamoyilining joriy etilishi, unda ko'chmas mulk obyektlarining soliqqa tortiladigan bazasi sifatida "kadastr qiymati" indikatori xizmat qiladi. Bu indikator, o'z navbatida, mintaqaviy mahalliy ko'chmas mulk bozorlaridagi vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Advalor tizimiga muvaffaqiyatli o'tish uchun soliqqa tortiladigan bazaning iqtisodiyot rivojlanish sikllari bilan birga ko'tarilishi va pasayishi imkoniyatini ta'minlovchi mezonlar bajarilishi zarur. Bu an'anaviy ravishda ma'lum bir muammo hisoblanadi va bozorning beqarorligi sababli rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakatlar uchun ayniqsa dolzarbdir.

Kadastr qiymatiga asoslangan soliq tizimining joriy etilishi soliq tizimini isloh qilishning muhim bosqichini belgilab beradi va davlat boshqaruvida fundamental o'zgarishlarni talab qiladi. Bu direktiv-ma'muriy boshqaruvdan indikativ boshqaruvga o'tishni anglatadi. Indikativ boshqaruv mintaqaviy boshqaruvning yanada moslashuvchan va samarali mexanizmi hisoblanadi, chunki u bozor signallariga asoslanadi.

O'zbekistonning baholash faoliyatidagi nazariy ishlanmalari rejali iqtisodiyot davrida uzilib qolgan bo'lsa-da, xorijda bozor iqtisodiyoti faoliyatining o'zgaruvchan shartlariga bosqichma-bosqich moslashish natijasida qiymatning turli turlari va baholashning hisoblash usullari to'g'risida zamonaviy tasavvur shakllangan.

Ushbu yangi tizim hududiy rivojlanishga quyidagicha ta'sir qiladi:

Ishbilarmonlik faolligining o'sishi kuzatilayotgan hududlarda joylashgan ko'chmas mulk obyektlari, turg'unlikdagi hududlarga nisbatan katta bozor qiymatiga ega bo'ladi;

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda PQ-3454-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 dekabrda «Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PF-6121-son Farmoni.



Advalor soliq tizimiga asos qilib olingan va mintaqaviy iqtisodiyotning real holatini hisobga oluvchi bozor qiymati ko'rsatkichi soliqqa tortish tizimining obyektivligini ta'minlaydi;

Pirovardida, bu tizim qo'shni munitsipalitetlar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi. Chunki to'g'ri baholangan mulk va undan keladigan soliq tushumlari hududning infratuzilmaviy rivojlanishini ta'minlaydi, bu esa, o'z navbatida, ko'chmas mulk qiymatining yanada oshishiga va soliq bazasining kengayishiga olib keladi.

Dunyodagi 130 dan ortiq mamlakatda bu tizim davlatning mavjud kapitaldan samarali foydalanishi uchun iqtisodiy dastak bo'lib xizmat qilmoqda.

Baholash faoliyatining o'zagi "bozor qiymati" tushunchasidir. Xalqaro<sup>7</sup> va milliy<sup>8</sup> baholash standartlari, hamda xalqaro ekspertlar va olimlarning nashrlarida ko'chmas mulk bozor qiymatining quyidagi ta'rifi keltirilgan: Bozor qiymati – bu baholash obyektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, tomonlar barcha kerakli ma'lumotlarga ega bo'lgan holda oqilona harakat qilganda va bitim narxiga biron-bir favqulodda holatlar ta'sir etmaganda, baholash sanasida sotilishi mumkin bo'lgan eng ehtimoliy narxidir.

Joriy bozor qiymati deganda baholash sanasidagi dolzarb bozor qiymati tushuniladi. Bu ta'rif bir nechta muhim komponentlarni o'z ichiga oladi:

1. Bu aniq bir narx emas, balki statistik jihatdan eng kutilgan qiymatdir;
2. Bozorning monopollashmaganligi va xaridorlar hamda sotuvchilarning erkin harakati;
3. Tomonlarning o'z manfaatlarini yo'lida eng yaxshi qarorni qabul qilishga intilishi;
4. Bozor ishtirokchilarining obyekt va bozor holati haqida to'liq axborotga ega bo'lishi;
5. Majburiy sotuv yoki boshqa tashqi bosimlarning bo'lmasligi.

Soliqqa tortish maqsadlarida baholash faoliyatini amalga oshirishda "kadastr qiymati" tushunchasi qo'llaniladi. Baholash uslubiyatiga ko'ra: "Baholash obyektining kadastr qiymati bozor qiymatini ommaviy baholash usullarini qo'llash orqali aniqlanadi. Ushbu qiymat kadastr baholashni tartibga soluvchi qonunchilikka muvofiq belgilanadi va tasdiqlanadi"<sup>9</sup>.

"Kadastr qiymati" tushunchasi bozor qiymati tushunchasidan kengroq bo'lib, ancha keng doiradagi vazifalarda ishlatiladi. Xususan, kadastr baholash hududlarning soliq salohiyatini xarakterlaydi.

**1-jadval.**

### **Kadastr qiymati darajalarining iqtisodiy mohiyati va byudjetga ta'siri<sup>10</sup>.**

<sup>7</sup> IAAO. Standard on Mass Appraisal of Real Property (2017); International Valuation Standards Committee (2005); International Association of Assessing Officers; Uniform Standards of Professional Practice and Advisory Opinions; TEGOVA. European Valuation Standards (10th ed.) (2025); Royal Institution of Chartered Surveyors. (2024).

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining, 2023-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 3487-raqamli buyrug'i.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 7-iyuldagi 269-son buyrug'iga ilova "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash uslubiyoti"

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.



Kadastr qiymati darajasi	Iqtisodiy ma'nosi	Byudjetga ta'siri
Past kadastr qiymati	Hududiy tuzilmaning yetarli bo'lmagan soliq salohiyatini xarakterlaydi.	Tahlil qilinayotgan foydalanish turi bo'yicha byudjetning o'z daromad bazasi yo'qligiga mos keladi.
Yuqori kadastr qiymati	Yuqori soliq salohiyatini va rivojlangan bozorni ifodalaydi.	Yuqori soliq tushumlarini va byudjetning o'z daromad bazasining o'sishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, kadastr qiymati ko'rsatkichi ishbilarmonlik faolligi, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy yashash sharoitlarining indikatori hisoblanadi. Bu holat ko'chmas mulkning bozor qiymatini baholash usullari yordamida kadastr qiymatini aniq belgilashning iqtisodiy ahamiyatini belgilab beradi. Agar kadastr qiymati noto'g'ri belgilansa (masalan, bozor qiymatidan keskin yuqori bo'lsa), bu ijtimoiy norozilikka va biznes faolligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, agar u juda past bo'lsa, byudjet daromadlari shakllanmaydi va infratuzilmani rivojlantirish imkonsiz bo'lib qoladi.

Xalqaro amaliyotda soliqqa tortish maqsadida barcha ko'chmas mulk obyektlarining qiymatini aniqlash ommaviy baholash yordamida amalga oshiriladi. Xalqaro baholash standartlariga ko'ra, ommaviy baholash uchun baza bo'lib bozor qiymati xizmat qiladi.

Ommaviy baholash tizimini tashkil etish asosiga tizimli yondashuv qo'yilgan bo'lib, u ekspertlarning ommaviy baholash standartlarida, shuningdek, qator ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Shunday qilib, ko'chmas mulkni ommaviy baholash asosi bozor qiymati bo'lgan ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimlarining muhim elementi hisoblanadi.

J. Ekkertning fundamental ishida ommaviy baholashga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ommaviy baholash – bu standart protseduralar va statistik tahlildan foydalangan holda, ma'lum bir sanadagi ko'chmas mulk obyektlari guruhlarini tizimli baholashdir."

R.Vesseli ham shunga o'xshash ta'rifni ilgari suradi: "Ommaviy baholash standart protseduralar va statistik ishlov berish asosidagi umumiy ma'lumotlarni qo'llagan holda ko'chmas mulk obyektlari guruhini belgilangan sanaga tizimli baholash sifatida aniqlanadi".

Ommaviy baholashning individual baholashdan asosiy farqi shundaki, ish alohida obyektlar bilan emas, balki statistik ma'lumotlar bilan olib boriladi, bu esa obyektlar majmuasini tavsiflaydi.

Quyidagi 2-jadvalda bu ikki yondashuvning asosiy farqlari keltirilgan.

**2-jadval.**

**Individual va ommaviy baholash usullarining qiyosiy tahlili<sup>11</sup>.**

<sup>11</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.



<b>Mezon</b>	<b>Individual baholash</b>	<b>Ommaviy baholash</b>
<b>Obyekt</b>	Yagona, aniq obyekt	Obyektlar guruhi (minglab birliklar)
<b>Maqsad</b>	Oldi-sotdi bitimi, kredit garovi	Soliqqa tortish, kadastr hisobi
<b>Uslub</b>	Obyektни bevosita ko‘zdan kechirish va tahlil	Statistik modellashtirish va ma’lumotlar bazasi
<b>Vaqt va xarajat</b>	Har bir obyekt uchun yuqori	Birlik hisobiga past, lekin tizim yaratish qiymat
<b>Natija</b>	Aniq bozor qiymati	Statistik jihatdan asoslangan model qiymati
<b>Sifat nazorati</b>	Ekspert xulosasini tekshirish	Statistik testlar (regressiya xatoligi, dispersiya)

Ommaviy baholash modellarini ishlab chiqish hisoblangan qiymatlarning bozor qiymatlariga nisbatan yuqori aniqligini ta’minlaydigan tegishli model va parametrlarni izlash bilan bog‘liq. Baholash protsedurasining majburiy elementi bu ommaviy baholash modellarini aktuallashtirish imkoniyatidir. Chunki ommaviy baholash amalga oshirilgandan so‘ng, ko‘chmas mulk bozori parametrlarining o‘zgaruvchanligi (inflyatsiya, talab o‘zgarishi, yangi infratuzilma) sababli, ommaviy baholash modelini muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

Xalqaro standartlar baholashning uchta asosiy yondashuvini reglamentlaydi: daromad, qiyosiy va xarajat yondashuvlari. Yondashuvni tanlash baholash obyektidan foydalanish turiga va mavjud ma’lumotlarga qarab belgilanadi.

Daromad yondashuvi – bu yondashuv mulkdan kelajakda olinadigan daromadlarni joriy qiymatga keltirishga asoslanadi. Tijorat ko‘chmas mulki (ofislar, savdo markazlari) uchun asosiy usul. Ommaviy baholashda individual uy-joylar uchun daromad yondashuvi qo‘llanilmaydi, chunki ushbu turdagi obyektlarning katta qismi daromad olish uchun ishlatilmaydi. Shuningdek, turar-joy ijara bozori ko‘pincha yashirin – “soya”da bo‘lib, ishonchli ma’lumotlarni yig‘ish qiyin jarayon hisoblanadi.

Qiyosiy yondashuv – sotuvlarni solishtirish modeli ko‘chmas mulk bilan amalga oshirilayotgan bitimlar soni ko‘p bo‘lganda eng samarali hisoblanadi. Odatda yirik shaharlar hududida joylashgan obyektlarni baholash uchun ishlatiladi. Baholash amaliyotida mavjud ro‘yxat orasida baholash obyektlarining ko‘pchiligi – qariyb 90% turar-joy fondini tashkil etadi, shundan kvartiralar taxminan 65% va individual uy-joylar qolgan qismini tashkil qiladi. Turar-joy ko‘chmas mulki bo‘yicha eng ko‘p bitimlar yirik aholi punktlarida amalga oshiriladi, boshqa obyektlar bilan bitimlar soni cheklangan.

Xarajat yondashuvi – oldingi ikki yondashuvni to‘ldiradi. Asosiy yondashuv sifatida u oldi-sotdi bitimlari to‘g‘risida yetarli ma’lumot bo‘lmaganda (masalan,



bozor passiv bo'lgan qishloq joylarda yoki maxsus sanoat obyektlari uchun) ishlatilishi mumkin.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Turar-joy ko'chmas mulki obyektlarini baholash jarayoni samaradorligini oshirish bugungi kunda eng keng ko'lamli iqtisodiy xalq xo'jaligi vazifasidir;

